

INNOVATIONS IN SCIENCE AND TECHNOLOGIES

Scientific electronic journal | Ilmiy-elektron jurnalı | Научно-электронный журнал

ИННОВАЦИИ
В НАУКЕ И ТЕХНОЛОГИЙ

ISSN 3030-3451

MAGISTRANT

“Innovations in science and technologies” ilmiy-elektron jurnalining
magistratura talabalari uchun mo‘ljallangan maxsus soni



“Innovations in science and technologies” ilmiy-elektron jurnalı OAK (Oliy attestatsiya komissiyasi) rayosatining 25.12.2024 y., №365/5-sonli qaroriga asosan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kirgan, hamda OAK (Oliy attestatsiya komissiyasi) rayosatining 2024 yil 30 martdagи 352/4-son qaroriga asosan rasman tan olingan Academic Resource Index (ResearchBib) ilmiy bazasida IF (Impact Factor) 6.75/ 2024 bilan indekslanadi va to‘liq jurnal tomonidan ko‘rsatilgan yo‘nalishlar bo‘yicha qabul qilingan

www.innoist.uz

TOSHKENT/ ТАШКЕНТ - 2025

**“MAGISTRANT” SPECIAL ISSUE OF
“INNOVATIONS IN SCIENCE AND TECHNOLOGIES” SCIENTIFIC
ELECTRONIC MAGAZINE
FEBRUARY 2025**

**«МАГИСТРАНТ»
СПЕЦИАЛЬНЫЙ ВЫПУСК НАУЧНО-ЭЛЕКТРОННОГО ЖУРНАЛА
“INNOVATIONS IN SCIENCE AND TECHNOLOGIES”
ФЕВРАЛЬ 2025**

**“INNOVATIONS IN SCIENCE AND TECHNOLOGIES” ILMIY-ELEKTRON
JURNALINING
“MAGISTRANT” NOMLI MAXSUS SONI
FEVRAL 2025**

**JURNAL O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
AXBOROT VA OMMAVIY KOMMUNIKATSIYALAR AGENTLIGI
TOMONIDAN 15.01.2024 YILDA №206463 SONLI GUVOHNOMA
BILAN RO‘YXATGA OLINGAN**

**“Innovations in science and technologies” ilmiy-elektron jurnali OAK
(Oliy attestatsiya komissiyasi) rayosatining 25.12.2024 y., №365/5-sonli
qaroriga asosan dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya
etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kirgan**

**ISSN: 3030-3451
www.innoist.uz**

TOSHKENT 2025

Ilmiy-elektron jurnal O'zbekiston
Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
15.01.2024 yilda № 206463 raqamli
guvohnoma berilgan

Ta'sischilar

«PARALLAX IT CLUB»
mas'uliyati cheklangan jamiyatni
BOSH MUHARRIR
Rustam Yaxshiboyev
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
“Moliya va raqamli iqtisodiyot” kafedrasi v.b.
dotsenti

E-mail: r.yaxshiboyev@tsue.uz
Bosh muharrir o'rinnbosari
Meirbek Qudratillayev
«PARALLAX IT CLUB» MCHJ
kadrlar bo'limi boshlig'i
E-mail: kudratillayev09@gmail.com

Ma'sul kotib
Narine Apsilyam
«PARALLAX IT CLUB» MCHJ kotibasi
E-mail: n.apisbury@tsue.uz
Tahririyat manzili
100212, Toshkent shahri, Yunusobod tumani,
Xidiraliyev ko'chasi 11-uy
Tel: (+998) 99 890 96 23,
(+998) 99 830 69 22
E-mail: info@innoist.uz
Sayt: www.innoist.uz

Kompyuter sahifalovchisi
Valijon Maxsudov
Tahliliy guruh
Valijon Maxsudov,
Rustam Yaxshiboyev,
Siddiqov Bobirbek,
Apsilyam Narine,
Tufliev Komronbek,

Dizayn
Tufliev Komronbek,

**Jurnalning chop etilishi va elektron shaklini
yangilab boruvchi mas'ul**
Rustam Yaxshiboyev

Chop qilindi
20-02-2025

Terishga topshirilgan sana
19-02-2025-y.

Chop etilgan sana
20.02.2025-y.

©Parallax IT Club MChJ

TAHRIRIYAT HAY'ATI

Teshabayev T.Z., i.f.d., prof. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, O'zbekiston

Abduraxmanova G.K., i.f.d., prof. TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, O'zbekiston

Djurabayev O.D., i.f.d., prof. TDIU Moliya va raqamli iqtisodiyot kafedrasi mudiri, O'zbekiston

Karlibayeva R.X., i.f.d., prof. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zbekiston

Eshmuradov D.E., t.f.n., dotsent Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, O'zbekiston

Yaxshiboyev R.E., “Moliya va raqamli iqtisodiyot” kafedrasi v.b. dotsenti, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zbekiston

Qudratillayev M.B., “Parallax IT Club” mas'uliyati cheklangan jamiyatni kadrlar bo'limi boshlig'i, O'zbekiston

Ismailov O.M., DSc., prof. International School of Finance technology and Science Institute (ISFT) “Iqtisodiyot va kompyuter injiniring” kafedrasi, O'zbekiston

Allamuratova Z.J., PhD., v.b. dotsent. Belarus-O'zbekiston qo'shma tarmoqlararo amaliy texnik kvalifikatsiyalar instituti o'quv-metodik bo'lim boshlig'i, O'zbekiston

Bazarbayev M.I., f-m.f.n., dotsent. Toshkent tibbiyot akademiyasi, O'zbekiston

Ermetov E.Ya., dotsent. Toshkent tibbiyot akademiyasi, O'zbekiston

Tajibayeva K.A., PhD, dotsent. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zbekiston

FAXRIYOR SHE’RIYATIDA RUHIY EVRILISH, FALSAFIY DUNYOQARASH MASALASI

Zarnigorxon Mavlonova

Guliston davlat universiteti 2-bosqich magistranti

Gmail: zarnigorxonabduolimova@gmail.com

Tel: 94 048 02 27

Annotatsiya: Mazkur maqolada shoir Faxriyor lirikasidagi ruhiy evrilish, kechinma va falsafiy qarashlarning o‘ziga xos ahamiyati, modern she’riyatning asosi hisoblangan ruhiyat masalasi, she’r va hayot mantig‘i orasidagi aloqa, Faxriyorning o‘ziga xos uslubi, ijodiy izlanishlari, ifoda shakllari, she’rlarida voqealar bayonidan ko‘ra kechinmalar oqimining old planga chiqishi va shu kabi masalalarga e’tibor qaratildi.

Kalit so‘zlar: kechinma, falsafa, ruhiyat, modernizm, badiiy tafakkur.

KIRISH

Ta’kidlash joizki, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Yevropada vujudga kelgan, XX asrda butun dunyo bo‘ylab yoyilgan modernizm yo‘nalishi o‘zbek adabiyotiga ham kirib keldi. Ilk davrlarda bir qator ijodkorlar bu usulda qalamini sinab ko‘rdi. Keyingi davrlarga kelib, modernistik usulda ijod qilish ommalasha bordi. Bu holat, ayniqsa, Faxriyor, Aziz Said, Abduvali Qutbiddin kabi ijodkorlar ijodida ko‘zga tashlanadi. Ulug‘bek Hamdam: “Mening nazarimda, yangi, modern she’r, avvalo, badiiy tafakkurdagi yangilanishdir [1, 154-bet]” degan fikrni ilgari suradi. Chindan ham she’r ruhiyat masalasi ekanligi davrdan davrga anglashilinib bormoqda. Modernizmning asosi ham shu go‘yaga borib taqaladi. Bora-bora ruhiyatdagи evrilishlar, kechinmalar, insonning ichki kurashi, uning o‘ziga, olamga bo‘lgan munosabatini aks ettirish old o‘rinni egallamoqda. Bugungi kun adabiyotida modern she’riyat cho‘qqisida turgan shoir sifatida Faxriyorni bilamiz. Uning o‘zgacha uslubi, ifoda shakllari, falsafiy mushohadalari allaqachon she’rxon qalbini egallab ulgurgan.

METODLAR

Faxriyor lirikasini tahlil va talqin etishda Ulug‘bek Hamdamning “Jahon adabiyoti: Modernizm va postmodernizm” qo‘llanmasi, Qozoqboy Yo‘ldoshning “Noziklashuv jarayoni” maqolasi, Faxriyorning “Ayolg‘u”, “Dardning shakli” to‘plamlari, Nazar Eshonqulning “Izlash azobining totlari” maqolasi, Shomirza Turdimovning “Vaqt sizlik”ka erkin muxammas” maqolasidan manbaa sifatida foydalanildi. She’rlar germenevtik va struktur-analiz metodlari bilan tahlil qilindi.

NATIJALAR VA MUNOZARA

“Mantiq – she’r uchun nisbiy tushuncha” ekanligini ta’kidlagan shoir Faxriyor she’riyati o‘quvchini ongiy rivojlanishga undaydi. Uning kechinmalari sokin o‘ylar ummonining dolg‘alanishi va hatto to‘fonlar hosil qilishiga sabab bo‘ladi. Faxriyor lirikasini kuzatar ekanmiz, biz asl va zabardast ijod namunalari bilan qarshilashamiz. Har bir she’r o‘zida shoir qalbini o‘qish imkonini beradi. She’rlarida hayot va falsafa, murakkab ichki ziddiyatlar, ruh va tan isyonи, erk, bashariyat, yasham aro yotgan, biz

sezgan-sezmgagan masalalar, ularga nisbat berilgan kechinmalar o‘rin olgan. Faxriyor she’rlarini shunchaki o‘qib, hazm qilish imkonsiz. Buning uchun katta kuch, energiya va salohiyat kerak bo‘ladi. Aks holda, she’rdagi tub mohiyatni kashf etolmaymiz. Qozoqboy Yo‘ldosh: “Faxriyor she’rlarini o‘qish ham, uqish ham, ta’sirlanish ham oson emas. Lekin uning bitganlari milliy she’riyatimiz taraqqiyotining shunday darajasidadirki, uni bilmaslik estetik va ma’naviy qiyofaning kemtikligiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ham bugungi oydin o‘zbek Faxriyor asarlarini o‘qishi, o‘rganishi, tahlil qilishga ehtiyoj sezishi kerak [2. 34-bet]”, - deya bejiz yozgan emas.

Faxriyor lirikasi kishi ruhiyatiga inja ta’sir etadi. Lirikasining asosiy qismi she’rlaridagi kechinmalarni falsafiy usulda bayon etishi bilan xarakterlidir. Faxriyor she’riyatida asosiy e’tibor voqealar bayoniga emas, kechinmalar tasviri va falsafiy mushohadaga tushadi. She’rlaridagi har bir tasvirni hayotiy mantiq bilan bog‘lashga intilish xatodir. Ba’zi tasvirlar mantiqqa sig‘maydi. Ularni anglash uchun tasavvurning cheksiz kuchiga tayanish lozim. Bu borada, Faxriyorning “Bir cheti yirtildi tabassumning “shart”, “Bulutga osilib turar minora”, “Yig‘i, seni qandoq kulduray?”, “Yolg‘izlikni kiyaman, yolg‘izlik urfim mening”, “Umuman ro‘y bermas voqeа, Ro‘y berguvchi menman, umuman” kabi misralari xarakterlidir. Bizni shunday tasavvurlar olamiga eltuvchi she’rlaridan biri:

Endi men kirmasman tushning tushiga,
Umid mendan umidin uzsin.
Oq qilaman ko‘ngil qushini
So‘zsiz.

Hasratlarim yovvoyilashar,
Alamlarim chekar o‘zini.
Yurak zindonidan ta’qiqlar osha
Men ozod etaman “Sevgi” so‘zini.

Tarang asab tolalarimni
Sozimga tor qilib tortaman.
She’r qilaman volalarimni,
Endi muhabbatdan ortaman.

Olis Oyning istarasiga
Isitmayman muzday yurakni.
Yashiraman qobirg‘alar orasiga
Oyga qarab o‘sayotgan titroqni.

Orzulardan yasay boshlayman armon,
Sog‘inchlardan – g‘arib bir go‘sha.
Unga baxtni qo‘ymam hech qachon,

Meni sotgan xoindir o’sha [4. 82-bet].

She’rda shoir sevgidan, baxtdan umidini uzgan lirik qahramon tasvirini beradi. Insonning tush ko‘rishini bilamiz. Ammo shoir lirik qahramon o‘y-u hislari darajasini bizga anglatish uchun vaziyatni yana-da kuchaytiradi, ya’ni endi u tushlarning tushiga kirmasligini yozadi. Biror narsadan umidini uzgan insonning yana qachondir umid uchqunlari qayta porlashi mumkin. Biroq lirik qahramon o‘zi bilan bu ish sodir bo‘lmasi uchun umidning o‘zidan umidini uzishini aytadi, ya’ni u bilan aloqani butunlay uzadi. Bir vaqtlar muhabbatga limmo-lim to‘lib, o‘zini qo‘yarga joy topolmay, tinimsiz uchgan ko‘ngil qushidan ham voz kechadi, uni oq qiladi. Bir qalbning alam chekishini eshitganmiz, ammo alamning o‘zini o‘zi chekishidek topilmani faqat Faxriyor ijodida uchratish mumkin. Yuragiga yashirib, avaylagan “sevgi” so‘zini ozod qilgan lirik obyekt endi muhabbatdan “ortishi”ni aytadi va hasratlarga qo‘l tutadi. Uning bu ishq yo‘lida asab tolalari shu qadar tarang tortilganki, ularni sozga tor qilish mumkin. Qahramon yorini “Oy” deb atar ekan, uning tafti endi yurakni isita olmasligini yozadi. Sababi u muhabbat yo‘lida umidsizlikka uchragan, dard bilan qarshilashgan. Sog‘inchdan yasalguvchi go‘shasida faqat armon hukmon bo‘lgusi. U yerga baxtni qo‘yish niyati yo‘q. Sababi lirik qahramonning shu holga tushishiga aynan baxt sababchi bo‘lgan. Shoир qachondir o‘zini baxtga topshirgan, uning og‘ushida abadiy qolishini xayol etgan. Biroq o‘tkinchi baxt uning qo‘llarini qo‘yib yuborib, yor visolidan ayro qoldiradi. O‘ziga shu qadar o‘rgatib, umidlarga to‘ldirib, so‘nggida tark etadi. Shuning uchun lirik qahramon endi u bilan qarshilashishni istamaydi, unga dushman ko‘zi bilan qaraydi. Muhabbatga ham qo‘l siltaydi. She’rdagi go‘zal va noodatiy tasvirlar, tuyg‘ularning jonlanishi qahramon ichki holatini ochib berishda ahamiyat kasb etadi. She’rda qahramon o‘ziga hech narsaning farqi va ahamiyati qolmagandek ko‘rsatishga intilsa-da, ruhiyatida g‘amgin kayfiyat ustunlik qiladi.

Shoirning “Armon” she’rida hayot haqiqati o‘ta nozik tasvir orqali beriladi. Shoirning badiiy mahorati estetik taraqqiyotga erishadi, tasavvurni yangilaydi:

Gul,
Albatta, ilohiy.
Bo‘y yetmagan bo‘y.
Bo‘y yetmagan har bir nimarsa
Ilohiy bo‘lar, shubhasiz [4. 75-bet].

Adabiyotda ba’zi yasham qonuniyatları tasvirlanadiki, ular zamon va makondan tashqi bo‘ladi. Shunday qonuniyatlardan biri insonning o‘zi yetisha olmagan, qo‘lida bo‘limgan narsasiga bo‘lgan kuchli talpinishi, ishtiyoyqidir. O‘sha narsaga erishish qanchalik uzoqlashsa, u qo‘l yetmas orzuga aylanib boradi, bunga qanchalik arzisin yo arzimasini, inson ko‘zida buyuklashib, ilohiy lashib boraveradi. She’rda keltirilgan gul obrazi ham xuddi shunday tasvirdir. “Gul” so‘zi orqali shoir istalgan mavjudlikka,

predmetga ishora qilayotgan bo‘lishi mumkin. lirik qahramon gulni ilohiy deb biladi. Uning ilohiyligi esa unga bo‘y yetmasligida. Matnda “bo‘y” so‘zi shakldoshlik hosil qilganiga guvoh bo‘lamiz. Bir o‘rinda inson bo‘y-basti, boshqa o‘rinda gul ifori nazarda tutilmoqda. Shu iforga yeta olmagani uchun ham lirik qahramon gulni mo‘jiza deb hisoblamoqda. Asl masala bu emas, shoir eng muhim gapni so‘nggi ikki misrada aytadi: “Bo‘y yetmagan har bir nimarsa Ilohiy bo‘lar, shubhasiz”. Ya’ni inson o‘zi erisholmagan narsasining gadosidir, qo‘lga kiritilgan narsaning esa ilohiyligi tugaydi, ahamiyat kuchi yo‘qoladi. So‘ng qalbida yangi “gul”ning umidi uyg‘onadi. Bu “gul” xoh mansab bo‘lsin, xoh boylik bo‘lsin, xoh shaxsiy rivojlanish darajasi-yu, xoh biror predmet bo‘lsin, buning ahamiyati yo‘q. Hatto bu obraz yor timsolini ifodalasa ham bu qonuniyat o‘zini oqlayveradi. Sababi yor ishqida zor yugurgan vaqtida oshiq sevgilisining qusurlarini ko‘rmaydi, unga erishgach esa yorining ham hamma qatori insoniy kamchiliklardan xoli emasligi ayon bo‘ladi va bu uning ilohiyligiga putur yetkazadi. Shoир she’rda shu haqiqatni o‘rtaga tashlaydi. Faxriyor she’rlari fikrdan-fikrga, kechinmadan-kechinmaga o‘sib boradi. Lirikasidagi yuksalib boruvchi badiiy tafakkur insonni o‘z qalbi haqida o‘ylashga majbur qiladi. She’rlarini turli ramzlar bilan boyitadi. Fikrlarini ochiq-oydin emas, balki yashirin yoxud ramziy ko‘rinishda ifoda etadi. Bu bilan she’r salohiyatini yana-da oshiradi va undan estetik zavq olish imkonini yaratadi.

Shoirning “Nahotki” she’ri hajman kichik bo‘lsa-da, u ko‘tarib turgan yuk nihoyatda og‘ir. She’rda Faxriyorning aksariyat she’rlarida bo‘lgani kabi dard, umidsizlik, ritorik savollar bilan to‘qnashamiz:

Nahotki,
paykalni
ummondan bo‘lak
mengzaydigan hech nimarsa yo‘q?

Nahotki,
shu oppoq mavjlar ostida
yotar cho‘kib ketgan ko‘hna tamaddun?

Nahotki,
Turkiston
Atlantida so‘zining
tarjimasidir?

Nahotki...[4. 14-bet].

Anglaganingizdek, she’rda to‘g‘ridan-to‘g‘ri Turkiston Muxtoriyati davriga ishora mavjud. Bejizga paykal cheksiz ummonga qiyoslanayotgani yo‘q. U yerda mashaqqat, ish va sinovlarning cheki yo‘q. Xalqning bu paykaldan qutulishga yagona

umidi esa Turkiston Muxtoriyati edi. Bolsheviklar taxtni ag‘darg‘an davrda ziyorolar butun xalqni zulmatdan yorug‘likka chiqarish maqsadida Turkiston Muxtoriyatini tashkil etadi. Biroq barchaga ozodlik umidini bergen bu Muxtoriyatning umri bor-yo‘g‘i yetmish ikki kun davom etadi. So‘ng tamaddun ildiziga bolta uriladi, uni shu ummon ostiga cho‘ktirishadi, shu paykal ostiga ko‘mishadi, xuddi afsonaviy Atlantida kabi yo‘qlikka mahkum etishadi. Bu esa shoirni iztirob va hayrat ichida qoldiradi. Shoir she’ridagi tushkunlik she’r yozilgan davr nuqtayi nazaridan olib qaralganda, o‘rnlidir. She’r 1988-yilda yozilgan. U vaqtlar O‘zbekiston hali SSSR tarkibidan ajrab chiqmagan vaqtlar edi. Shu bois shoir kechagi kunning achchiq xotirasi-yu, ertangi kun savoli bilan o‘rtanadi.

Odam taroshlamoq bo‘lsangiz toshdan,
toshni silang,
imkon qadar ko‘rgazing mehr.
Toshlar faqat shafqat oldida
himoyasizdir.

Toshga gullar tuting,
nimpushti gullar –
shafqat rangidagi gullarni tuting.

Tosh, albatta, cho‘zar qo‘lini,
gulingizni olar, qo‘lingizni o‘par,
yig‘lab yuboradi, ishoning, shu tosh [4.12-bet].

Shoir yuqoridagi erkin vaznda yozilgan she’ri orqali insoniyatning mehr-muhabbatga, shafqatga bo‘lgan ehtiyojini nihoyatda go‘zal tasvirlab beradi. Odamzod go‘dakligida qalbi mehr va yorug‘likka to‘la, tashvishlardan holi bo‘ladi. Biroq vaqt o‘tgan sari turli sinovlar bilan qarshilashadi, turli qiyinchiliklarni, ruhiy holatlarni boshidan kechiradi. Hayot deb atalmish qozonda qaynarkan, kimlardir, bir vaqtlardagi go‘dak qalbini unutib qo‘yadi, diydasi qattiqlashib, og‘ir xarakterli odamga aylanib qoladi. Chetdan qaraganda, ular o‘ta qattiqqo‘l, mehr-shafqatsiz inson bo‘lib ko‘rinadi. Tosh detali ramzan ana shunday insonlarni ifodalamoqda. Ammo shoir she’rida aytadiki, ularning o‘sha ma’sum go‘dak qalbi hali ham mavjud. Faqat mehr va shafqat ko‘rsatib, ularga buni eslatish lozim. Eng mehrsiz inson, aslida, mehrga eng ko‘p muhtoj bo‘lgan insondir. Shu sabab ulardagi muhabbatga to‘la insonni tiriltirmoqchi bo‘lsangiz, odamtaroshlamoqchi bo‘lsangiz, mehr ulashing va ularning qanchalik nozik qalblari borligiga guvoh bo‘lasiz. Misralarning barchasi ham katta harf bilan boshlanmasligi ham beixtiyor o‘quvchi e’tiborini tortadi. Shoir bir fikrni yakunlamagunicha, bosh harflarga murojaat qilmaydi. Ushbu shakliy izlanish ham she’r ruhiyatiga ta’sir qiladi. She’rda inson va ruh-qalb masalasi ko‘tarilgan. Sirtdan boqib, har doim ham ichki kechinmalar haqida xulosa berolmaymiz. Aynan mana

shunday biz ilg‘ab-ilg‘amagan ruhiyat masalalarini kitobxonga, she’rxonga yetkazish badiiy ijodning vazifasidir. Bu o‘rinda aytish mumkinki, Faxriyor ijodining asosiy qismini ruhiyat masalasi tashkil qiladi.

Biz devorga, rom ostiga
o‘tgan kunlarni osib qo‘yamiz
(rom ochib chiqadi bizni).

So‘ng osig‘lik o‘tgan kunlarni
tomosha qilishni yaxshi ko‘ramiz.

Tomoshaga ketgan vaqt esa
ko‘chaga haydalar.

Boisi: hech qachon tomoshabindan
chiqmas qahramon[4. 34-bet].

Yuqoridagi “Ko‘rgazmaxona” she’rida shoir o‘tmish bilan o‘ralashib yashagan insonlarning kelajakka aytadigan yangi gapi bo‘lmasligiga ishora qilmoqda. O‘ziga xos uslubda yozilgan ushbu she’rning mohiyatida yotgan haqiqat insonni o‘zi bilan yuzlashtiradi. Inson faqat o‘tmishga diqqatini qaratib yashasa, uning vaqt havoga sovriladi, bugunini yo‘qotadi, kelajagini esa “tomoshabin”ga, ya’ni hayotdagi qahramonlarni tomosha qilish bilangina cheklanuvchiga aylantiradi. She’rning “Ko‘rgazmaxona” deb nomlanishi ham o‘zida ramziy ma’no tashiydi. Uzoq tarixdan xabar beruvchi ko‘rgazmalar muzeylardan o‘rin olgani kabi kechmishimizdagи voqealar, yashalgan hislar, lahzalar xotiramizda qolmog‘i, bugun bilan yashamoqni o‘rganmog‘imiz lozim. Inson har kuni muzeyga bormaganidek, xotiralari bilan aloqa me’yorini saqlashi kerak bo‘ladi. Shunda o‘tmishdan ortib, kelajakka ham vaqt topadi. Shoirning badiiy maqsadi mana shu g‘oyani ilgari surish hisoblanadi.

Odamni
qamab qo‘ysa bo‘lar bemalol
surgun qilsa bo‘lar, hattoki...
o‘ziga [4. 129].

Inson turli ruhiy holatlarni boshidan o‘tkazadi. Ichki ziddiyatlar bilan qarshilashadi. Ana shunday murosasizlik onlarida u o‘z ichiga qamalib oladi. Jamiyatdan uzoqlashadi. Ruh o‘zini o‘zi qobiqqa o‘raydi. Bu vaqtida inson turli savollar og‘ushida qolgan, ularga javob topolmay, sarsonlik ichra kezayotgan bo‘ladi. Yoxud kuchli hissiyotlar qamrab olgan kishida ham bu hol ro‘y berishi mumkin. Bu she’r orqali shoir falsafasini ilgari suradi.

Turnalar qo‘shig‘i – eng ma'yus qo‘shiq.
Undan-da mungliroq kuylashi mumkin
Faqt shoirlar.

Xazonlar shitiri – eng so‘nggi tovush.
Navbat – shoirlarga!

“Eng..., eng...” imkoniyatlar chegarasidir,
Uni faqt shoirlar buzar [4. 31-bet].

“Kuzgi she’r” da ijod sehri, ijod kuchining qudrati haqida so‘z bormoqda. Biz taqqoslar assosida yashaymiz. Har narsani bir-biri bilan solishtirib, uning “eng”ini belgilaymiz. O‘sha “eng”dan narigi tarafda hech narsa yo‘q, o‘zimiz uchun shu yerda chegarani yopamiz. Ammo shoirlarga shunday iste’dod berilganki, ular har qanday “eng”ni yanchib o‘ta oladi. Ular chegara bilmas, imkoniyatlari esa cheksiz. O‘z tasavvur kuchlari sabab oddiy inson ilg‘aman narsalarni ilg‘ashi, boshqalar sezmagan sezgilarни sezishi, his qilmagan nozikliklarni his qila olishi ularga bunday imkoniyatni tuhfa etadi. Shoir o‘zining “Imkoniyat” she’rida ham bu fikrni tasdiqlaydi. Ijod kishisining eng katta yutug‘i uning adoqsiz imkoniyatlarga egaligidir:

Imkoniyat – dastyorim mening,
Yugurdagim – imkoniyat.

So‘zning jozibasi uning makon va zamondan tashqiligidida. Har qanday she’r ham makon-zamon tanlamas bo‘lavermaydi. O‘z davri lirikasining go‘zal va zabardast namunasi bo‘lgan ayrim she’rlar keyingi davrlarda ahamiyatini yo‘qotishi mumkin. Ammo shunday mavzular, masalalar borki, ular tilga olinganda, biror davr yo yerga nisbat berib bo‘lmaydi, barcha inson uni o‘zi uchun yozilgandek his qiladi. Shunday mavzulardan biri erk mavzusidir:

Qayda yashamasin odamzod, asli
Sangijumon, Rumo yo Toshkand.
Aslida bittadir yurakning kasbi:
Yurak erkka ixtisoslashgan [4. 73-bet].

She’rda inson ruhi hamisha erkka chanqoq bo‘lishi, yuragini yagona kasbi erkni ta’minalash ekanligi ifodalananmoqda. Qayerda yo qay vaqtida bo‘lmasin, yurakning yagona tirgagi erkdir. Usiz yurak qulaydi, kasbidan ayrilib, xarob bo‘ladi. Sababi ruhni qafasda tutib bo‘lmaydi, u mudom hurlikka talpinadi. Erki o‘z qo‘lida bo‘lgan insondon omadli va boyroq kishini topish qiyin. Shoir mazkur she’ri orqali davr tanlamas mavzuni ko‘targan, deyish mumkin.

Faxriyorning hayot mantig‘ini butunlay rad etuvchi misralari borki, ularni o‘qiganda she’rxon o‘yga toladi. Shoirning bu nomutanosiblik ostiga yashirgan

sirlarini anglamoqqa intiladi. “Eshitilar gullarning bo‘yi” misrasini o‘qigan insonda “gul bo‘yi ya’ni hidining ham tovushi bo‘ladimi?” degan savol tug‘ilishi tabiiy. So‘ng iforning mayin kuy bilan hamohang taralayotganini tasavvur qilasiz. Yoxud “Bu kechani armonlar ichar” misrasida tunni bir qadah ichiga solib ichayotgan armonni ko‘z oldingizga keltirasiz. “Yurak po‘st tashlaydi” misrasida esa yurakning xuddi ilondek po‘st tashlab, o‘zini yangilashini, yangi hislar, yangi lahzalarga o‘zini tayyorlashini o‘ylaysiz. “Daraxtlar tongni izlab kechani kechib borar” misrasida yodimizga millat oydinlari, ularning bu yurt ertasi uchun jonlarini tikib qilgan fidoiyliklari tushadi. “Erk choyshabmas, ko‘ylakdir” misrasida hurlik, ozodlik insonga umrining qaysidir qismidagina emas, balki tug‘ilganidan to umrining so‘nggiga qadar hamroh bo‘lishi kerak degan ma’noni o‘qiysiz. Shoirning “Go‘rlar qisir – tug‘ishdan qolgan” misrasini o‘qir ekansiz, daf’atan “Go‘ro‘g‘li” dostonidagi go‘rda tug‘ilgan qahramon, uning mardliklari va qahramonliklari yodingizga tushadi. Shoir endi bunday mardlar tug‘ilmayotganligini, insonlar bir-birining soyasiga yashirinib, kun ko‘rayotganligini nadomat bilan xabar qiladi. Tasvirning originalligi, berayotgan ruhning kuchi, ko‘tarayotgan mavzusining dolzarbligi bilan shu bиргина misrani Faxriyor lirkasining yuragi deb atash mumkin. Shoir ijodida bu kabi misralar son-sanoqsiz. Tabiiyki, o‘xshatishlar, metaforalar she‘r ruhiga ta’sir etmay qolmaydi. Adabiyotning estetik go‘zalligi ham shunda. Ubizga imkonsiz narsalarni tasavvur etish imkonini beradi.

XULOSA

Nazar Eshonqul ta’biri bilan aytganda, Faxriyor she’rlari tasavvurga zavq beradi, tasavvurni lazzatlantiradi. Biroq bu she’riyat shunchaki zavq uchun o‘qiluvchi ijod namunasi emas, balki u shoirning bezovta ruh isyonи, iqrори, savollaridir. Undagi ruhiyat manzaralari nihoyatda ko‘lamli tasvirlangan. Fikr yukiga ham alohida e’tibor qaratilgan. Tom ma’noda insonni o‘z botini bilan qarshilashtiradi. She’rlaridagi uyg‘oq ruh she’rxonni ham sergaklantiradi. Faxriyording o‘tkir falsafa va kechinmaga boy lirkiasi hali to‘la o‘rganilgani yo‘q. Adabiyotimizga bu boradagi izlanishlar kerakligi bois Faxriyor ijodini o‘rganish qamrovini kengaytirish lozim.

ADABIYOTLAR:

1. Hamdamov U. Jahon adabiyoti: Modernizm va postmodernizm (o‘quv qo‘llanma) – T.: “Akademnashr”, 2020.– 285 b.
2. Yo‘ldoshev Q. Noziklashuv jarayoni. “Yoshlik” jurnali, 2014, 10-сон. – 64 b.
3. Faxriyor. Dardning shakli. –T.: “Yozuvchi”, 1997. – 146 b.
4. Faxriyor. Ayolg‘u. – T.: “Sharq” nashriyot-matbaa, 2000. –254 b.
5. Rahimjonov N. Istiqlol va bugungi adabiyot. – T.: O‘qituvchi, 2012. – 327 b.
6. Tolstoy L.N. O literature. – M., 1995. – 764.
7. Fayzullayeva O. General Typological Characteristics of Lyric Cycyles. Science and innovation, 2022. 1(B5). – P. 231-236.

8. Ro‘zimboyev S. Xorazm dostonlarida ramzlar. O‘zbek tili va adabiyoti. 1992.
5-6-sonlar. – 96 b.

TROMBOFILIYA GENLARI MUTATSIYALARI BO‘LGAN BEMORLARDA GEMOSTAZ BUZILISHINING KLINIK KO‘RINISHINI O‘RGANISH

Yusupova Oydin O‘ktam qizi

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi

“*Gematologiya va transfuziologiya*” yo‘nalishi 1-bosqich magistranti,

E-mail: oydinya.yusupova46@gmail.com

Tel.: +998(97)930-87-98

Annotatsiya: Ushbu ishda trombofiliya bilan bog‘liq bo‘lgan genetik tasdiqlangan mutatsiyalarga ega bemorlarda gemostaz buzilishining klinik manzarasi xususiyatlari ko‘rib chiqilgan. F5 (Leyden mutatsiyasi) va F2 (protrombin G20210A) mutatsiyalarining uchrashish chastotasi, ularning venoz trombozlar, tromboemboliyalar va homiladorlik asoratlari rivojlanishidagi roli tahlil qilindi. Koagulogramma laboratoriya ko‘rsatkichlari va aniqlangan mutatsiyalar kontekstidagi o‘zgarishlar o‘rganildi. Ishda genetik omillarni erta aniqlash va individual yondashuv zarurligi alohida ta’kidlangan. O‘tkazilgan tahlil, trombofiliya bilan bog‘liq asoratlarning oldini olish va davolashda genetik testlarning ahamiyatini tasdiqlaydi. Tadqiqot natijalari diagnostika va davolash usullarini takomillashtirish uchun foydalanilishi mumkin.

Kalit so‘zlar: gemostaz, trombofiliya, Leyden mutatsiyasi, protrombin G20210A, genetik test, venoz tromboz, tromboemboliya, homiladorlik asoratlari, koagulogramma, individual terapiya.

I.Kirish

Tromofiliya bu qon tomir tizimida tromblarning yuqori darajada hosil bo‘lishiga olib keluvchi irsiy va orttirilgan holatlar guruhidir. Ushbu holat qon ivish jarayonini tartibga soluvchi genlardagi mutatsiyalar bilan bog‘liq bo‘lib, prokoagulyant va antikoagulyant mexanizmlar o‘rtasidagi muvozanatning buzilishiga olib keladi.

Tadqiqotning dolzarbliji trombofiliyaning keng tarqalganligi va bemorlarning sog‘lig‘iga bo‘lgan sezilarli ta’siri bilan izohlanadi. Tromofiliyaning klinik ko‘rinishlari simptomlarsiz kechishidan tortib, chuqur venalardagi tromboz, o‘pka arteriyasining tromboemboliyasi va ayollarda takroriy homiladorlikni yo‘qotish kabi og‘ir asoratlarga qadar farq qiladi. Ayniqsa, genetik asoslangan tromofiliya bilan bog‘liq gemostaz buzilishlarini o‘rganishga alohida e’tibor qaratiladi, chunki bu mexanizmlarni tushunish asoratlarning erta diagnostikasi, oldini olish va davolashda yordam berishi mumkin.

Ushbu ishning maqsadi trombofiliya genlarida mutatsiyalar mavjud bo‘lgan bemorlardagi gemostaz buzilishlarining klinik ko‘rinishlarini o‘rganish bo‘lib, bu ularni davolash va oldini olishning samarali yondashuvlarini ishlab chiqishga yordam beradi.

Gemosstaz tizimi qon ivish va uni to‘xtatuvchi mexanizmlar o‘rtasidagi muvozanatni saqlaydi. Ammo ichki yoki tashqi omillar ta’sirida bu muvozanat buzilishi mumkin. Irsiy trombofiliyada asosan qon ivishiga javob beruvchi genlar, fibrinoliz genlari va foliy kislotasi almashinuvini boshqaruvchi genlar ishtiroy etadi.

Masalan, gomosistein darajasining oshishi qon tomirlarida aterosklerotik jarayonlar va trombozlar keltirib chiqarishi mumkin.

Muhim genetik o‘zgarishlar:

1. **F5 geni mutatsiyasi** (Leyden mutatsiyasi) qon ivish jarayonini kuchaytirib, tromb hosil bo‘lishini tezlashtiradi.
2. **F2 geni mutatsiyasi** (protrombin geni) bu gen orqali protrombin sintezi kuchayib, tromboz xavfi oshadi.
3. **FGB geni mutatsiyasi**, bu fibrinogen sintezini kuchaytirib, tromboz ehtimolini oshiradi.
4. **SERPINE1 geni mutatsiyasi** fibrinoliz tizimining faoliyatini pasaytiradi, bu esa qon tomirlarining trombozga moyilligini oshiradi.

Homilador ayollarda irsiy trombofiliya homila rivojlanishining buzilishi, homiladorlikning erta tugashi yoki asoratli kechishiga sabab bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, homiladorlik paytida qonning fiziologik ivish faollahuvi kuzatiladi, ammo trombofiliyasini bo‘lgan ayollarda bu jarayon patologik tus oladi.

Profilaktika va davolash: Trombofiliya tashxisi qo‘yilgach, shifokorlar trombozning oldini olish uchun turmush tarzini o‘zgartirishni, jismoniy faollikni me’yorda ushlab turishni va zarur hollarda antikoagulyant dorilarni buyuradilar. Bundan tashqari, gomosistein darajasi oshgan bemorlarga foliy kislotasi va B6, B12 vitaminlari buyuriladi.

Tromboz rivojlanish xavfini kamaytirish uchun erta tashxis va individual yondashuv muhim ahamiyatga ega. Shu yo‘l bilan tomir asoratlarining oldini olish va bemorning sog‘lig‘ini yaxshilash mumkin.

Kompleks molekulyar-genetik tadqiqotlar trombofiliya xavfini aniqlashga yordam beradi. Genetik moyillikni oldindan bilib, yurak-qon tomir tizimi buzilishlarining rivojlanishini o‘z vaqtida profilaktika qilish mumkin.

Trombofiliya rivojlanishining xavf omillari:

- **Harakatsizlik:** Uzoq muddatli yotoq rejimi (3 kundan ortiq), immobilizatsiya yoki doimiy statik yuklamalar.
- **Gormonal preparatlar:** Estrogen saqlovchi peroral kontratseptivlar.
- **Ortiqcha vazn.**
- **Tromb emboliyasining tarixda bo‘lishi.**
- **Markaziy vena kateteri qo‘yilishi.**
- **Dezidratsiya** (organizmning suvsizlanishi).
- **Jarrohlik aralashuvlari va jarohatlar.**
- **Tamaki chekish.**
- **Onkologik kasalliklar.**
- **Homiladorlik.**
- Yurak-qon tomir kasalliklari yoki boshqa xavfli o‘smalar.

Natijalarning ahamiyati

Tadqiqot natijasida muhim genetik markerlarning tahlili o‘tkazilib, genetikning xulosasi tayyorlanadi. Bu:

- **Trombofiliya xavfini baholash.**
- **Tromboz va boshqa kasalliklarni prognoz qilish.**
- Profilaktika bo‘yicha **optimal choralarini** aniqlash.
- Kasalliklarning klinik ko‘rinishlarining sabablarini o‘rganishga yordam beradi.

Tahlil natijalari shifokorga individual profilaktika va davolash usullarini tanlash imkonini beradi.

II. Metodologiya

Nasliy trombofiliya- bu genetik jihatdan tromblar hosil bo‘lishiga moyillikni bildiradi. Ushbu holat, ayniqlsa, qonni ivitish tizimidagi bir nechta genetik o‘zgarishlar mavjud bo‘lganda, erta bolalikda namoyon bo‘lishi mumkin. Biroq, ko‘pincha qonni yuqori ivitishga birgina mutatsiya sabab bo‘ladi va bu laboratoriya diagnostikasi davomida tasodifan aniqlanadi.

Trombofiliyaning ikki asosiy turi mavjud: qon ivitish tizimiga bog‘liq bo‘lgan gematogen va boshqa omillar bilan bog‘liq negematogen shakllar. Ilmiy ma’lumotlar ko‘plab genetik omillar mavjudligini ko‘rsatadi, ular ushbu holat rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Ulardan ba’zilari, masalan, V Leyden faktori mutatsiyasi, II prothrombin mutatsiyasi, shuningdek, C, S proteinlari va antitrombin tanqisligi aniq o‘rganilgan. Ushbu o‘zgarishlar qon ivitishni nazorat qilishdagi balansni buzadi va tromblar hosil bo‘lishiga olib keladi.

Boshqa omillar, masalan, disfibrinogenemiya yoki gipergomosisteinemiya, kamroq o‘rganilgan va noaniq shakllariga kiradi. Ular molekulyar o‘zgarishlar yoki toksik moddalarning yuqori konsentratsiyasi ko‘rinishida namoyon bo‘lib, tomirlarning shikastlanishi va tromblarning hosil bo‘lish xavfini oshiradi.

Kamdan-kam uchraydigan sabablar, masalan, ivituvchi omillar polimorfizmi yoki trombomodulin genidagi nuqsonlar diagnostikani murakkablashtiradi va qo‘sishma tadqiqotlarni talab qiladi. Genetik o‘zgarishlarning bunday xilma-xilligi trombofiliyanı chuqurroq o‘rganish, diagnostika aniqligini oshirish va davolash samaradorligini yaxshilash zarurligini ko‘rsatadi.

Trombofiliya qon ivishining genetik yoki orttirilgan buzilishi bo‘lib, organizmda tomirlarda qon quyqalari (tromblar) shakllanishi ehtimolini oshiradi. Bu holat genetik omillar ta’sirida yoki tashqi sharoitlar, masalan, uzoq muddat harakatsizlik, jarrohlik aralashuvlari yoki boshqa surunkali kasalliklar natijasida yuzaga kelishi mumkin. Trombofiliyaning rivojlanishida qon ivish tizimida muvozanatning buzilishi asosiy o‘rin tutadi. Odatda bu muvozanat ivishni kuchaytiruvchi va uni to‘xtatuvchi mexanizmlar o‘rtasida kuzatiladi.

Bu kasallikning asosiy ko‘rinishlari turli holatlarda namoyon bo‘lishi mumkin. Masalan, yosh davrida yoki g‘ayrioddiy joylarda (miya tomirlari, mezenterial tomirlar va boshqalar) trombozlar aniqlansa, bu trombofiliyaning borligini anglatadi. Bundan

tashqari, oilaviy tarixda o‘xshash holatlar mavjud bo‘lsa, bu irsiy xususiyatga ega ekanligini ko‘rsatishi mumkin.

Trombofiliyani aniqlash uchun laborator tahlillar muhim rol o‘ynaydi. Koagulogramma yordamida qon ivish tizimining funksional holati tekshiriladi. Shu bilan birga, genetik testlar irsiy buzilishlarni aniqlash uchun qo‘llaniladi. Ayniqsa, homiladorlik davrida bu tahlillar muhim ahamiyatga ega, chunki trombofiliya homiladorlik bilan bog‘liq asoratlarga olib kelishi mumkin. Homiladorlik paytida fiziologik jihatdan qon ivish faollashadi, ammo trombofiliya mavjud bo‘lganda bu jarayon patologik tus olishi ehtimoli yuqori.

Profilaktika choralari trombozlarning oldini olishga qaratilgan. Jismoniy faollikning saqlanishi, ortiqcha zo‘riqishlardan saqlanish va kompression kiyimlardan foydalanish muhimdir. Shifokor tomonidan belgilanadigan individual davolash choralari, jumladan, antikoagulyant dorilar qabul qilish, xavfni kamaytirishda asosiy rol o‘ynaydi.

Mazkur kasallikning erta aniqlanishi va samarali boshqaruvi kasallik oqibatlarini yumshatishda katta ahamiyatga ega. Profilaktika va to‘g‘ri davolash orqali bemorlarning hayot sifati sezilarli darajada yaxshilanishi mumkin.

Trombofiliyalar tasnifi

Trombofiliya qon ivish tizimida yuzaga keladigan patologik holat bo‘lib, tomir ichida tromblarning shakllanishiga moyillikning ortishi bilan tavsiflanadi. Ushbu holat gemostaz va gemoreologiyaning buzilishi bilan bog‘liq. Trombofiliyalarning tasnifi ularning kelib chiqish sabablariga asoslanadi va ular irsiy yoki orttirilgan xavf omillariga bo‘linadi. Bu tasnif shartli xarakterga ega, chunki ba’zi hollarda irsiy va orttirilgan omillar birgalikda paydo bo‘lishi mumkin.

Irsiy trombofiliyalar

Irsiy trombofiliyalar genetik omillar bilan bog‘liq bo‘lib, ko‘pincha quyidagi holatlarni o‘z ichiga oladi:

- **Antitrombin (AT) yetishmovchiligi:** Bu gemostazning tabiiy antikoagulyantlari bo‘lgan antitrombin miqdorining kamayishi bilan kechadi.
- **C va S proteinlari yetishmovchiligi:** Ushbu oqsillar K vitaminiga bog‘liq bo‘lib, ularning yetishmovchiligi qon ivishining oshishiga olib keladi.
- **Leyden mutatsiyasi:** F5 genidagi nuqson bilan bog‘liq bo‘lib, qon ivish tizimida faoliyatning oshishi kuzatiladi.
- **G20210A protrombin geni mutatsiyasi:** Protrombin genida yuzaga keladigan bu mutatsiya trombozga moyillikni oshiradi.

Ushbu patologiyalar "klassik" irsiy trombofiliyalar deb ataladi va ular qatorida ko‘proq o‘rganilgan.

Orttirilgan trombofiliyalar

Orttirilgan trombofiliyalar tashqi yoki kasalliklarga bog‘liq omillar natijasida rivojlanadi. Bu holatlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- **Antifosfolipid sindromi:** Qon ivish tizimiga ta’sir qiluvchi autoimmun kasallik.

- **Saraton kasalliklari:** Onkologik jarayonlar natijasida tromboz xavfi ortadi.
- **Jigar yetishmovchiligi:** Bu holat gemostaz tizimidagi tabiiy antikoagulyantlarning pasayishiga olib keladi.

Diagnostika va testlash

Trombofiliyalarni aniqlash uchun quyidagi diagnostika usullari qo‘llaniladi:

1. **Genetik testlar:** Polimeraza zanjir reaksiyasi (PZR) yordamida genetik mutatsiyalar aniqlanadi, masalan, Leyden mutatsiyasi va G20210A protrombin geni mutatsiyasi.

2. **Immunologik va koagulyatsion tahlillar:** Antitrombin, C va S proteinlari darajalari va faolligini o‘lchash.

3. **DNK-chiplar:** Kam uchraydigan genetik o‘zgarishlarni aniqlashda ishlataladi, lekin ular keng qo‘llanilmaydi.

Antikoagulyantlarning diagnostikaga ta’siri

Antikoagulyant terapiya (varfarin, heparin va boshqalar) vaqtida test natijalari noto‘g‘ri bo‘lishi mumkin. Masalan:

• **Varfarin** qabul qiluvchi bemorlarda C va S oqsillarining vitamin K ga bog‘liqligi sababli ularning darajasi kamayishi mumkin.

• **Geparin** esa antitrombin darajasini o‘zgartiradi.

Shu sababli, antikoagulyant qabul qilayotgan bemorlarda yoki trombozning o‘tkir davrida testlarni o‘tkazish tavsiya etilmaydi.

III.Natijalar

1-Jadval

Trombofiliya (TF) tasnifi

Nº	Nasliy trombofiliya	Genetik yoki orttirilgan	Orttirilgan
1	Leyden mutatsiyasi (faktor V geni)	Antitrombin defitsiti	Antifosfolipid sindromi
2	Polimorfizm G20210A (prothrombina geni)	Proteina C defitsiti	Mieloproliferativ kasalliklar
3	Padua mutatsiyasi (faktor IX geni)	Proteina S defitsiti	Paroksizmal kechki gemoglobinuriya
4	Mutatsiya V617F (JAK 2 geni)	V, VIII, IX, X, XI faktorlarining yuqori faolligi, IAP-1, ATIF	Onkologiya
5	Polimorfizm A1298C (MTHFR geni)	Disfibrinogenemiya	Nefrotik sindrom
6	Polimorfizm C10034T (gamma-zanjir fibrogeni)	Gipergomotsisteinemiya	Ichaklarning yallig‘lanishli kasalliklari
7	Polimorfizm Leu34Val (faktor XIII geni)	Plazminogen defitsiti	Behchet sindromi

8	Polimorfizmlar va boshqa genetik omillar: Endoteliya reseptori PrS Proteina Z Proteina Z-ga bog‘liq proteaza inhibitori Trombomodulin Lipoprotein (a) ADAMTS13 Kalretikulin ATIF IPTF APF	IPTF defitsiti	Sistemik qizil qo‘zg‘alish (lupus)
9	Qon guruhining (0 bo‘lmagan) turi	Villebranda faktori darajasi	Zastoy yurak yetishmovchiligi
		Trombositlardan kelib chiqqan mikrovezikulalar darajasining oshishi	Nafas yetishmovchiligi
		Endoteliotsitlardan kelib chiqqan mikrovezikulalar darajasining oshishi	Homiladorlik
		To‘qima faktori yoki annexin V olib yuruvchi mikrovezikulalar darajasining oshishi	Semizlik
			Yoshi
			Uzoq muddatli immobilizatsiya
			Estrogenlar va GKS qabul qilish
			Ximioterapiya
			Antifosfolipid sindromi

Qisqartmalar: ADAMTS13 – trombospondin-1 gomologik domenli disintegrin va metalloproteinaza (von Villebrand omilini parchalovchi proteaz), JAK 2 – Yanus kinaz 2-turi, ACE – angiotensinga aylantiruvchi ferment, ATIF – trombin bilan faollashtirilgan fibrinoliz inhibitori, GCS – glyukokortikosteroidlar, PAI-1 – plazminogen faollashtiruvchi ingibitor 1-tur, IPTP – to‘qima omil yo‘li inhibitori, MTHFR – metilentetrahidrofolat reduktaza, PrS – protein C.

Gen mutatsiyalari bilan bog‘liq trombofiliya bo‘yicha bemorlarni gemostazni tekshirish, koagulatsiyaning yuqori darajasini aniqlash imkonini beradi, bu esa tromb hosil bo‘lishi xavfini oshiradi. Bir nechta tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, pratrombin geni G20210A mutatsiyasi va Leyden mutatsiyasi V faktorining gendi trombin ishlab

chiqarishning ortishi bilan bog‘liq bo‘lib, venoz tromboembolizm (VTE) xavfini oshiradi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, bu mutatsiyalarga ega bo‘lgan bemorlarda koagulyatsiya faolligi yuqori bo‘lib, bu antitrombinga qarshi chidamlilik va proteyin C yo‘lini faollashtirishdagi buzilishlar bilan bog‘liq. Masalan, bir ishda pratrombin mutatsiyasi gibrild shaklida 3,5% bemorlarda VTE mavjudligi aniqlangan, bu esa ushbu hodisalarga genetik moyillikni ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, kimyoterapiya olgan bemorlar orasida o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, trombofiliya genlari mutatsiyalari davolash davrida tromb hosil bo‘lishi ehtimolini oshiradi, ayniqsa fibrinogen yoki pratrombin genida mutatsiyaga ega bo‘lgan bemorlarda.

IV.Xulosa

Genetik mutatsiyalar bilan trombofiliya bo‘lgan bemorlarda gemostaz bo‘yicha yakuniy xulosa quyidagi nuqtalarni o‘z ichiga oladi. Trombozlar va trombofiliya diagnostikasi va davolashda genetik mutatsiyalarni o‘rganish juda muhim, chunki ular trombosisni rivojlanishiga predispozitsiyaga olib kelishi mumkin. Masalan, V faktori genining Leyden mutatsiyasi va prattromino genidagi G20210A polimorfizmi trombozlarning ko‘payishiga olib kelishi mumkin. Biroq, ularning klinik ahamiyati ko‘pincha cheklangan, chunki bu mutatsiyalarni aniqlash, o‘zgarishlarni davolash strategiyasiga kiritish uchun yetarli asos bo‘lmaydi.

Genetik testlarni qo‘llashning afzalligi shundaki, ular bemorlarning merosxo‘rlik predispozitsiyasini aniqlashga yordam beradi, bu esa trombozlarning mexanizmlarini yaxshiroq tushunishga imkon yaratadi. Biroq, ba’zi tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, genetik testlar har doim ham davolash rejasini o‘zgartirishga yordam bermaydi. Masalan, Leyden mutatsiyasi yoki prattrobin polimorfizmi aniqlangan bemorlarda, bu mutatsiyalarni aniqlash, venoz tromboembolizmning takrorlanish xavfini kamaytirish yoki antikoagulyant davolashni o‘zgartirishga olib kelmasligi mumkin.

Bundan tashqari, ko‘plab bemorlar trombozlar va tromboemboliyalar bilan birga genetik va orttirilgan omillarni ham o‘z ichiga oladi. Masalan, yallig‘lanish kasalliklari, onkologik kasalliklar va uzoq vaqt davomida immobilizatsiya yoki gormonal preparatlarni qabul qilish tromboz rivojlanish xavfini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

Yangi avlod sekvenatsiya texnologiyalarining rivojlanishi, tromboz va gemorragik asoratlar bilan bog‘liq yangi genetik variantlarni aniqlashga imkon beradi. Bu usullar yangi genetik belgilarning klinik ahamiyatini o‘rganish va ulardan aniq davolashni qo‘llash uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Biroq, bu sohada ko‘proq tadqiqotlar talab etiladi, chunki yangi genetik markerlarning klinik ahamiyati va ular trombozlar bilan bog‘liq kasalliklarni davolashdagi roli hali to‘liq o‘rgаниlmagan.

Shunday qilib, hozirgi kunda trombofiliya diagnostikasida genetik testlar, klinik tahlil va trombozlar rivojlanishi bilan bog‘liq xavf omillarini hisobga olish muhimdir. Kelajakda diagnostika panelini kengaytirish va klinik tavsiyalarni aniqroq belgilash

trombozning oldini olish va davolash samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

V. Foydalanilgan adabiyotlar

1. Колуччи, Г. М. Риски и профилактика венозных тромбоэмболий / Г. М. Колуччи, Н. С. Иванова // Вестник кардиологии. — 2020. — Т. 23, № 3. — С. 112-120.
2. Момот, А. П. Проблемы диагностики тромбофилии в клинической практике / А. П. Момот, В. П. Семёнов // Журнал клинической медицины. — 2015. — Т. 17, № 5. — С. 150-157.
3. Козак, П. М. Генетические тесты и их применение в терапии венозных тромбозов / П. М. Козак, А. А. Боровиков // Тромбоз и гемостаз. — 2019. — Т. 10, № 2. — С. 98-105.
4. Зотова И.В., Затейщиков Д.А. Наследственная тромбофилия и венозные тромбоэмболические осложнения: правила тестирования в клинической практике. Российский кардиологический журнал. 2020;25(3S):4024. <https://doi.org/10.15829/1560-4071-2020-4024>
5. Королева А.А., Герасимов С.С., Кононец П.В., Любченко Л.Н. Оценка роли полиморфизмов генов системы гемостаза в развитии венозного тромбоза и тромбоэмболии легочной артерии в периоперационном периоде у пациентов со злокачественными опухолями торакоабдоминальной локализации // Клиническая и экспериментальная хирургия. Журнал имени академика Б.В. Петровского. 2021. Т. 9, № 1. С. 55-62.

DIQQATNI ANIQLASHNING SUN'iy INTELLEKTGA ASOSLANGAN ALGORITMI

Sodiqova Nigora Shuxrat qizi

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Kompyuter tizimlarini loyihalash yo'naliши, 1-kurs magistranti

shuxratovna@gmail.com

+998909049966

Annotatsiya: Mazkur maqola, sun'iy intellekt (SI) asosida ishlab chiqilgan diqqatni aniqlash algoritmlarining ta'rif va ularning amaliy qo'llanilishini o'r ganishga qaratilgan. Diqqatni aniqlash algoritmlari, foydalanuvchi yoki tizimning ma'lum bir ob'ekt yoki vazifaga qaratilgan diqqatini tahlil qilishga yordam beradi, bu esa turli sohalarda, xususan, inson-mashina o'zaro ta'sirida, kognitiv ilm-fan va avtomatik boshqaruva samarali qo'llaniladi. Ushbu maqolada, diqqatni aniqlashning asosiy printsiplari, algoritmlar turkumi va ularning ishlash mexanizmlari yoritiladi. Sun'iy intellektga asoslangan yondashuvlar yordamida diqqatni boshqarish va tushunish jarayonlari takomillashtiriladi, natijada tizimlar foydalanuvchilarning ehtiyojlariga aniqroq moslashadi.

Kalit so'zlar: Sun'iy intellekt, diqqatni aniqlash, algoritmlar, kognitiv tizimlar.

Kirish: Bugungi kunda sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari turli sohalarda faol rivojlanib, inson faoliyatini yanada samarali va aniqroq amalga oshirishda muhim ro'l o'y namoqda. SI tizimlarining asosiy maqsadlaridan biri – insonning kognitiv jarayonlarini simulyatsiya qilish va ularni boshqarishdir. Bu jarayonlardan biri bo'lgan diqqatni aniqlash, ma'lumotlarni ajratib ko'rsatish va foydalanuvchining qaysi ma'lumotlarga e'tibor qaratayotganini tushunishga yordam beradi. Insonning diqqatini boshqarish, uning psixologik holatini, kognitiv faoliyatini va tashqi muhit bilan o'zaro aloqasini yaxshilashga yordam beradi.

Adabiyotlar tahlili: Diqqatni aniqlashning sun'iy intellektga asoslangan algoritmlari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar so'nggi yillarda faol rivojlanmoqda. Ular insonning diqqatini modellashtirish va boshqarish uchun turli metodologiyalarni ishlab chiqishga qaratilgan. Adabiyotlar tahlili orqali, bu sohada olib borilgan tadqiqotlar, metodlar va yondashuvlar tahlil qilinadi.

1. Diqqatni modellashtirishning psixologik asoslari.

Aviatsiyada radioshaffof materiallarning har tomonlama diagnostikasini ta‘minlash uchun bir nechta usullarni birlashtirgan integratsiyalashgan monitoring tizimlaridan foydalanish mumkin. Bular, ultratovush diagnostikasi materialning tuzilishini to‘liqroq tahlil qilish uchun terahertz skanerlash bilan amalga oshirilishi va ishlatilishi kerak. Muntazam texnik xizmat ko‘rsatish vaqtida bunday tizimlar havo kemasining tumshuq qismilarning holatini avtomatik ravishda tahlil qilishi va jiddiy nosozliklarga olib kelishidan oldin yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nuqsonlarni aniqlashimiz kerak.

Ushbu usullar va texnologiyalar aviatsiya tizimlarining xavfsizligi va samaradorligini ta‘minlash uchun juda muhim bo‘lgan radioshaffof materiallarning holatini sifati va miqdoriy tahlil qilish imkonini beradi [15,16].

IV. XULOSA

Biz shu o‘rinda, kompozit materialning radioshaffofligini o‘lchash tizimi bir-biriga bog‘langan bir nechta komponentlarni o‘z ichiga oladi: signal generatori, o‘lchash antennalari, sinov namunasi, qabul qiluvchi uskunalar, kuchaytirgichlar, analog-raqamli o‘zgartgichlar va markaziy kompyuter. Ushbu elementlarning har biri o‘z ahamiyatiga ega va o‘lchash natijalarining aniqligi va ishonchlilagini ta‘minlash uchun metrologik yordamni talab qiladi.

Kalibrlash, tekshirish va noaniqlikni baholashni o‘z ichiga olgan metrologik ta‘minot o‘lchash jarayonining asosiy komponentidir. Bu o‘lchangan ma‘lumotlarning aniq va takrorlanishini ta‘minlashga yordam beradi, bu esa o‘z navbatida havo kemasining uskunalarining ishonchli ishlashini ta‘minlaydi.

Kompozit materiallarning radioshaffofligini nazorat qilish va monitoring qilishning samarali usullarini ishlab chiqish va joriy etish aviatsiya korxonalariga parvozlar xavfsizligining yuqori standartlarini saqlash, ekspluatatsion xavflarni kamaytirish va havo kemalarining umumiyligi ishonchlilagini oshirish imkonini beradi. Shunday qilib, radioshaffoflikni o‘lchash texnologiyalarini takomillashtirish va ularning metrologik aniqligini ta‘minlash aviatsiya materialshunosligi va texnikasi sohasidagi muhim vazifalar bo‘lib qolmoqda.

V.FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

14. Jumamuratov B.A., Abduqayumov A.A., Eshmuradov D.E. Kompozit materiallarning radioshofonligini nazorat qiluvchi vositaning metrologik ta‘minoti // “Milliy standart” ilmiy-texnik jurnali, 2024, 3-sod. b. 1-5.

15. Низомов Н. Б Музафарова С. А., Ташланова Д. М. Исследования погрешности измерения ёмкости полупроводниковых структур // Proceedings of

VI International Scientific and Practical Conference Berlin, “Current challenges of science and education” Germany 2024/12, c. 142-149.

16. Jumamuratov B.A., Amangeldiyev N.S., Perdebayev S.R. Havo kemalarining radiopriborlarini sertifikatlashtirishda diagnostika masalalari // Science and innovation international scientific journal volume 1 issue 8 uif-2022: 8.2 ISSN: 2181-3337 C.86-89.

17. Jumamuratov B.A., Aytbayev.T.A., Rakhimova N.M. Metrological Supply of the Repair and Testing of the Nose of the Aircraft (Radom) // International scientific and practical “Smart cities and sustainable development of regions” LLC Conference Proceedings, Institute of Digital Economics and Law [ООО «Institut tsifrovoy ekonomiki i prava»], 2024. – 1005 p. 978-5-6050374. pp.522-526.

18. Jumamuratov B.A. Metrological support of the repair and testing of the nose of the aircraftparameters of an aircraft // Science and Education in Karakalpakstan, 2024, №2/1 ISSN 2181-9203., C.123-130.

19. Jumamuratov B.A., Eshmuradov D.E., Azizov O.X. The future of aeronautical processing opportunities and challenges of automation // Science and innovation international scientific journal volume 2 issue 4 april 2023 uif-2022: 8.2 | issn: 2181-3337 | scientists.uz-C.231-236.

20. Жумамуратов Б.А., Эшмурадов Д.Э., Тураева Н.М. Разработка модели системы восстановления навигационного оборудования летательных аппаратов за счет повышения их эксплуатационной готовности // Журнал «Авиакосмическое приборостроение». DOI:10.25791/aviakosmos.6.2023.1343. №6. Санкт-Петербург -2023. - С.18-27.

21. Jumamuratov B.A., Matyakubova P.M., Aytbayev T.A. Qualimetric analysis of characteristics of satellite navigation systems // Electronic journal of actual problems of modern science, education and training. June, “Modern problems of technical sciences” 2022 - 6. ISSN 2181-9750 UDC: 629.783 <http://khorezmscience.uz-C.54-61>.

22. Jumamuratov B.A., Rakhimova N.M., Attokurov U.T. The using of physical properties of semiconductor materials in advanced engineering // Science and innovation international scientific journal volume 2 ISSUE 10 OCTOBER 2023 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337 | SCIENTISTS.UZ <https://doi.org/10.5281/zenodo.10047921>. C.162-168.

23. Jumamuratov B.A., Eshmuradov D.E., Nabikhanova A.D. Kompozit materiallarning radioshaffofligini monitoring qilishning zamonaviy tizimlari va vositalari: holati va rivojlanish istiqbollari // International scientific journal science and innovation special issue “Modern problems and prospects of development of energy supply of digital technology facilities”, MARCH, 2024 <https://doi.org/10.5281/zenodo.10724550>- C.438-441.

24. Jumamuratov B.A., Sharipov G'.N., O'rolov J.A. Samolyotning tumshuq qismi (обтекатель) ta'mirlash va sinovdan o'tkazishning metrologik ta'minoti // International scientific journal science and innovation special issue "Modern problems

and prospects of development of energy supply of digital technology facilities", MARCH, 2024 <https://doi.org/10.5281/zenodo.10719692> C.49-53.

25. Luyckx, G., Voet, E., Lammens, N., & Degrieck, J. Исследование о применении волоконных датчиков для мониторинга состояния композитных материалов в реальном времени "Strain measurement in composite materials using embedded fibre Bragg gratings." Composite Science and Technology, 68(3), 2008, pp. 506-515.

26. Boyes, R. Non-Destructive Testing of Composite Materials. Книга охватывает основные методы неразрушающего контроля композитных материалов, включая ультразвуковую инспекцию, термографию и радиоволновую томографию. Woodhead Publishing, 2018.

27. Jumamuratov B.A. Ko‘p qatlamlı KMKS 120 kompozit materialning signal yutilishi hamda metrologik ta’minoti // Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti xalqaro ilmiy-texnik anjuman «Elektromexanik va elektrotexnologik tizimlarni raqamlashtirishning dolzarb muammolari» 21-22 may 2024-yil C.246-250.

28. Jumamuratov B.A., Eshmuradov D.E. A mathematical model for studying the reaction of an aircraft engine blade to a bird strike // Международной научно-практической конференции, «новые возможности устойчивого развития горных регионов: инновации и сотрудничество», посвященной 60-летию Ошского технологического университета имени м.м. адышева ош 2023 Известия ОшТУ, 2023 №2, Часть 2 C.199-207.

29. Jumamuratov B.A. Kompozit materiallarning radioshaffofligini o‘lchashning metrologik asoslari // Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti xalqaro ilmiy-texnik anjuman «Elektromexanik va elektrotexnologik tizimlarni raqamlashtirishning dolzarb muammolari» 21-22 may 2024-yil-C.250-256.

TIJORAT BANKLARINING MUAMMOLI KREDITLAR BILAN ISHLASHI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

Joniboyeva Sitora Oybek qizi

“Bank ishi va auditi” mutaxassisligi

2-kurs magistranti

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

sitorajoniboyeva@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada bank tizimidagi kredit portfellari va muammoli kreditlar bilan ishlash masalalari bo‘yicha mavjud tadqiqotlar tahlil qilinib, qonunchilik doirasida ko‘rilayotgan chora-tadbirlar o‘rganilgan. Shuningdek, kredit berish va qaytarish tizimining samarali faoliyatini ta‘minlash bo‘yicha bir qator tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: tijorat banklari, aktivlar, kredit portfellari, kredit, risk, muddati o‘tgan to‘lovlar.

I.KIRISH

Moliyaviy sektorni izchil isloq qilish davomida bir qator muhim chora-tadbirlar amalga oshirildi. Natijada, ilg‘or bank biznesini yuritish va sektor ichidagi raqobatni kuchaytirish uchun zarur huquqiy shart-sharoitlar yaratildi. Xususan, xalqaro standartlarga mos keladigan va xorijiy investitsiyalarni jalg qilishga qaratilgan huquqiy muhitni ta‘minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasining «O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida», «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida», «Valyutani tartibga solish to‘g‘risida» va «To‘lovlar va to‘lov tizimlari to‘g‘risida» gi yangilangan qonunlari qabul qilindi.

Shu bilan birga, bank sohasidagi hozirgi holat tahlili bank sektorida davlatning yuqori darajadagi aralashuvi, davlat ishtirokidagi banklarda menejment va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatining yetarli emasligi, iqtisodiyotda moliyaviy vositachilikning past darajasi kabi bank sektorini iqtisodiy yangilanishlar va jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda rivojlantirishga to‘sinqilik qilayotgan qator tizimli muammolar mavjudligini ko‘rsatmoqda².

Tijorat banklari jalg qilgan mablag‘larni asosan kredit berish shaklida ishlatadi, bunda faqatgina daromad olish emas, balki mablag‘larni kredit oluvchidan qaytarib olish masalasi ham oldindan belgilanishi kerak. Chunki, bank sarmoya egasi sifatida sarmoyani emas, balki unga nisbatan foydalanish huquqini ma‘lum shartlar asosida sotadi.

Ayni paytda, mamlakatimizda ilmiy va amaliy olimlar tomonidan «muammoli kredit» tushunchasi ancha ko‘proq muhokama qilinmoqda. Bu esa bejiz emas, chunki respublikamiz tijorat banklarining kredit portfelidagi muammoli kreditlar ulushi, ularni kamaytirish uchun ko‘rilayotgan choralariga qaramasdan, yuqori darajada qolmoqda. Bugungi kunda ko‘pgina davlatlar bank tizimida umidsiz qarzlarining ko‘payishi muammosiga duch kelayotganligi tufayli banklarning muammoli kreditlari bilan ishlash tizimini takomillashtirish masalalari dolzarbliги hozirgacha muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuning uchun kreditorlar bilan bir qatorda mijozlar tomonidan kreditni

² 2020 — 2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloq qilish strategiyasi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 12.05.2020 yildagi PF-5992-son

qaytarish bo‘yicha o‘z yechimini topmagan muammolar mavjud.³

Ilmiy adabiyotlarda muammoli kreditlar bo‘yicha turli xilma-xil ta‘riflar berilgan. Ayrim adabiyotlarda, muammoli kredit deganda ob‘ekti, sub‘ekti va ta‘minotiga nisbatan bank tomonidan shubha paydo bo‘lgan kredit tushunilsa, ayrim adabiyotlarda “muammoli kreditlar deganda, — qarz oluvchi bir yoki bir necha to‘lovlarni amalga oshirmaganligi yoki kredit ta‘minoti qiymatining pasayishi kreditni muammoli kreditlar turkumiga o‘tishini anglatadi”⁴ deya ta‘rif berilgan.

Tijorat banklarida muddati o‘tgan kreditlar bilan ishslash va ularning portfelini boshqarish samaradorligini oshirish masalalari bir qator xorijiy olimlarning ilmiy tadqiqotlarida o‘rganilgan va kredit portfeli tushunchasini uning mohiyatiga berilgan ta‘riflarda ifodalangan. Masalan amerikalik iqtisodchilar Kris J. Barlton, Diana Mak Noton “kredit portfeli - bu kreditlarni turkumlashni o‘z ichiga oladi»⁵- deb ta‘riflashadi.

O‘z o‘rnida, bank sektorining ichki va tashqi ish faoliyatları ITlarning rivojlanishi bilan yanada rivojlanib bormoqda va bu eng katta ta‘sir qilgan soha sifatida bank tizimini ko‘rsatish mumkin.⁶

Shuningdek, N. Sokolinskaya “kredit portfeli qisqa va uzoq muddatli kreditlar yig‘indisidan iborat” deb ta‘riflaydi va muammoli kreditlarni boshqarish masalasiga alohida to‘xtalib o‘tadi⁷. Bu ta‘rifda asosiy e‘tibor kreditning muddatiga qaratilgan bu holat kredit holatini va mohiyatini to‘liq ochib bermaydi. Chunki, bank tomonidan berilgan kreditlarning muddatini belgilab qo‘yilishi va unga rioya qilinishi faqat kredit klassifikatsiyasi sifatini aniqlashda muhim omil bo‘lishi mumkin.

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlar ham bu borada qator izlanishlarni olib borishgan, xususan, Sh.Z.Abdullaevning fikriga ko‘ra, banklarning muddati o‘tgan kreditlari – bu turli xil kredit risklariga asoslangan muayyan mezonlarga qarab turkumlangan kreditlarning qaytarilishida yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar bo‘lib, asta sekin umumiyl bank aktivlarining standart holatiga ta‘sir qiladi deb aytadi.⁸ Iqtisodchi olma o‘z ta‘rifida kreditlarning ma’lum bir mezonlar asosida turkumlanishiga, shu bilan birga kredit risklariga alohida to‘xtalib o‘tgan.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan ta‘riflarning o‘ziga xos jihatlarini tahlil qilgan holda muddat o‘tgan kredit tushunchasiga quyidagicha ta‘rif berish mumkin deb hisoblaymiz: Avvalo bankning kredit portfeli- bu bankning kredit operatsiyalarini amalga oshirish uchun zarur asos sanalib, bank tomonidan berilgan jami kreditlarning

³ Muhammadiyev, Dilmurod Abdulhakim o‘g‘li TIJORAT BANKLARI RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO‘LLARI // ORIENSS. 2021. №8.

⁴ Abdullaeva Sh.Z. Bank risklari va kreditlash. T.: Moliya, 2012, 124-b

⁵ Sattarov O., Beknazarov E. Tijorat banklarida GEP va uni boshqarish. Monografiya. -T.: EXTREMUM PRESS. 2011 y. 82 b

⁶ Saeid Khajeh Dangolania. The impact of information technology in banking system (A case study in bank Keshavarzi Iran) // Procedia - social and behavioral sciences, Vol. 30, 2011. – 13-16 p

⁷ Диана Мак Нотон. Банковские учреждения в развивающихся странах.- ИЭР МБРР.-Вашингтон Д.С., 2011.-с.75

⁸ Sattarov O., Beknazarov E. Tijorat banklarida GEP va uni boshqarish. Monografiya. -T.: EXTREMUM PRESS. 2011 y. -82 b

yig‘indisini o‘zida ifodalaydi. Uning turli shakllarida kreditorning belgilangan qarzni kech to‘lashi yoki to‘liq to‘lamasligi va bunda vaqt omilining suiste’mol qilinishi biz yuqorida so‘z yuritayotgan masala obyekti bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, banklar faoliyatida kredit operatsiyalari asosiy o‘rinni egallagani uchun ularning kredit paketlarini to‘g‘ri tashkil qilish banklarning samarali va barqaror faoliyat ko‘rsatishi uchun imkoniyat yaratib beruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Kredit operatsiyalarini olib borishda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar banklar daromadining kamayishiga, ba‘zi hollarda ularning sinishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, banklarning kredit portfeli va uning sifatini nazorat qilib borish tijorat banklari samarali faoliyatining garovidir.⁹

Yuqorida keltirilgan holatlarga tayanib, respublikamiz tijorat banklarida muddati o‘tgan kreditlarni boshqarish samaradorligini yaxshilash bo‘yicha izlanishlar olib borish doimo muhim va dolzarb masala sifatida qolmoqda.

II. TAHLIL VA NATIJALAR

Bizning fikrimizcha, muammoli kreditlar «substandart», «shubhali» va «umidsiz» kreditlar sifatida tasniflangan kreditlarni anglatadi. Iqtisodiy jihatdan, muammoli kreditlar kredit risklarining mavjud bo‘lishining aniq namoyon bo‘lishidir, chunki bu bank tomonidan kredit risklarini noto‘g‘ri boshqarish natijasida yuzaga keladi. «Muammoli kredit»tushunchasi bevosita «kredit risklari» kategoriyasi bilan bog‘liqdir. Shuning uchun muammoli kreditlar mohiyatini tahlil qilishda bank kredit risklarining iqtisodiy mazmunini ko‘rib chiqish muhimdir. Bu, yuqorida belgilangan maqsadga erishishda asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tijorat banklaridagi kredit riskining asosiy qismi, mamlakatdagi ayrim tarmoqlarda mahsulotlarga bo‘lgan talabning kamayishi yoki ishlab chiqarishning pasayish ehtimoli bilan bog‘liq. Bundan tashqari, bank kredit riski darajasiga quyidagi omillar ham ta‘sir qilishi mumkin:

Bankning iqtisodiyotdagi o‘zgarishlarga tez moslashish qobiliyati va mahsulotlariga elastik talabga ega bo‘lgan tarmoq yoki doiradagi to‘planish darajasi. Bu, ayniqsa, bank mijozlarining ma‘lum tarmoqlarda yoki geografik hududlarda bozor o‘zgarishlariga sezgirligi bilan bog‘liq.

Bank faoliyatining yangi, kam o‘rganilgan va noan‘anaviy tarmoqlarda shakllanish darajasi.

Yangi bank xizmatlarini qisqa vaqt ichida ko‘p miqdorda joriy etish, ammo bu xizmatlarga bo‘lgan talabning yetishmasligi bankni salbiy natijaga olib kelishi mumkin.

Yaqin kelajakda yangi mijozlarni ko‘p miqdorda jalb qilish.

Kredit va boshqa bank shartnomalarining ko‘p qismi iqtisodiy qiyinchiliklarni boshdan kechirayotgan mijozlarga tegishli bo‘lishi.

⁹ Azlarova Aziza Axrorovna “TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELINI SAMARALI BOSHQARISH MASALALARI”

“Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2018 yil 3-b

Amaldagi qonunchilikka ko‘ra, bank kredit portfeli muntazam tahlil va auditdan o‘tkazilishi kerak. Bu jarayonda kredit sifatini aniqlash bilan birga, kreditlash jarayonini boshqarish sifatini baholash, jumladan, tasdiqlangan kredit siyosatiga, kredit hujjatlarini rasmiylashtirishga, garovni baholash va rasmiylashtirishga, kreditlashga doir vakolatlarni taqsimlashga, shuningdek, qonunchilik me‘yorlariga rioya qilinishini ta‘minlashga alohida e‘tibor berilishi zarur. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimida aktivlar bo‘yicha ehtimoliy zaxiralar yaratish borasidagi amaldagi me‘yoriy hujjatlarga tegishli o‘zgartirishlar kiritilgan. Jumladan, 2021-yil 10 dekabrda Markaziy bank Boshqaruvining «Aktivlar sifatini tasniflash, tijorat banklari tomonidan ular bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxiralarni shakllantirish va undan foydalanish tartibiga o‘zgartirishlar va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida»gi 34/5- sonli qaroriga asosan tijorat banklari tomonidan beriladigan kreditlar yuqorida keltirilgan mezonlar bo‘yicha «standart», «substandart», «qoniqarsiz», «shubhali», «umidsiz» yoki ishonchsz kreditlarga tasniflanadi. Aktivlar sifati bo‘yicha tasniflanib, har hisobot davrida ehtimoliy yo‘qotishlarga qarshi zaxiralar tashkil qilinib boriladi. Bunda, tijorat banki maxsus zaxiralarni aktivlarni tasniflash uchun mazkur Nizomda nazarda tutilgan asoslar vujudga kelgan sanadan boshlab shakllantirishi va ular bo‘yicha buxgalteriya o‘tkazmalarini dasturlashgan holda amalga oshirishi lozim. Standart aktivlarga yaratiladigan zaxiralar sifati standart deb tasniflangan jami aktivlar qoldig‘iga nisbatan har oyning yakuniga qadar milliy valyutada shakllantirilishi lozim.

1-jadval

Kreditlarning sifati bo‘yicha shakllantirilishi lozim bo‘lgan zaxiralar me‘yori¹⁰

Aktivlar sifati bo‘yicha	Maxsus zaxiralarni shakllantirish
“standart”	1%
“substandart”	10%
“qoniqarsiz”	25%
“shubhali”	50%
“umidsiz”	100%

Aktivlar yuqori likvidli ta‘minot bilan ta‘minlanganda ular bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplashga mo‘ljallangan zaxira miqdori quyidagi formulaga muvofiq aniqlanadi:

$$Z = (AJM — TQ * (1-Ch)) * m^{11}$$

bunda:

Z — shakllantirilishi lozim bo‘lgan zaxira miqdori;

¹⁰ Muallif tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 10.12.2021 yil № 2696-3 sonli “Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ularidan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish haqida” nizomi asosida tayyorlandi

¹¹ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 10.12.2021 yil № 2696-3 sonli “Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ularidan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish haqida

AJM — aktivning jami qiymati summasi;

TQ — yuqori likvidli ta'minot qiymati;

Ch — valyutadagi tafovutni hisobga olish omili. Mazkur omil aktiv ifodalangan valyuta u bo'yicha qabul qilingan ta'minot valyutasidan farq qilmasa 0 ga, farq qilsa 0,1 ga teng bo'ladi;

m — aktiv tasnifi bo'yicha shakllantirilishi lozim bo'lgan zaxira yaratish me'yori.

Bunda, aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira miqdori 0 yoki undan kichik (manfiy) bo'lsa, aktiv bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira shakllantirilmaydi.". Aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira miqdori yuqori likvidli ta'minot bilan ta'minlangan aktivlar uchun shakllantirilishi kerak bo'lgan zaxiralarni hisoblashni maqsad qilib oladi. Bu formula orqali banklar yoki moliyaviy tashkilotlar aktivlarning qiymati va ta'minotlarini hisobga olib, ehtimoliy yo'qotishlarni qoplashga kerak bo'lgan zaxiralarni aniqlaydilar. Yuqori likvidli ta'minot — bu yuqori sifatli va tezda sotilishi mumkin bo'lgan aktivlar, masalan, naqd pul yoki davlat obligatsiyalari bo'lishi mumkin. Banklar yoki moliyaviy institutlar ushbu ta'minotni qo'llagan holda, aktivlarining ehtimoliy yo'qotishlarini qoplash uchun kamroq zaxira shakllantiradilar, chunki bu ta'minotning qiymati o'zgarmasligi yoki oson sotilishi ehtimoli yuqori.

Valyutadagi tafovut — bu omil banklar uchun muhim, chunki aktiv va ta'minot bir xil valyutada bo'lmasa, valyuta kursining o'zgarishi zaxira miqdoriga ta'sir qilishi mumkin. Masalan, agar bank o'z aktivlarini USDda ifodalasa va ta'minotni so'mda qabul qilsa, valyutadagi tafovut zaxira miqdorini o'zgartirishi mumkin.

Tasniflangan aktivlar — yuqori sifatli aktivlar uchun zaxira miqdori kam bo'ladi, ammo substansiyalari umidsiz tasniflangan aktivlar uchun zaxira ko'payadi. Bu esa bankning xavfini hisobga olishda muhim omil hisoblanadi.

Ushbu formula banklarga yuqori likvidli ta'minot bilan ta'minlangan aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zarur bo'lgan zaxira miqdorini aniqlashda yordam beradi. Bu, banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash va ularning aktivlariga nisbatan ehtimoliy yo'qotishlarni oldini olishga yordam beradi. Shuningdek, valyutadagi tafovutni hisobga olish omili bankning xalqaro faoliyatini va risklarni boshqarish tizimini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi.

mlrd. soʻm

Koʻrsatkichlar nomi	Yan.	Fev.	Mart	Apr.	May	Iyun	Iyul	Avg.	Sen.	Okt.	Noy.	Dek.
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13
Regulyativ kapitalning tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlarning umumiy summasiga nisbati, foizda	17,7	17,7	17,5	17,2	17,1	17,3	17,1	17,0	17,0	17,1	17,4	17,4
Regulyativ kapital	109 891	110 455	111 397	112 532	113 724	115 612	116 910	117 994	119 605	121 265	123 800	124 793
Tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlarning umumiy summasi	620 013	624 281	638 251	653 306	664 959	670 104	682 288	693 618	704 367	711 093	712 384	718 557
I darajali kapitalning tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlarning umumiy summasiga nisbati, foizda	15,3	15,1	14,8	14,5	14,3	14,2	13,9	13,8	13,9	14,0	14,2	14,3
I darajali kapital	94 679	94 253	94 637	94 713	94 946	95 074	95 055	95 620	97 989	99 673	101 160	102 618
Tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlarning umumiy summasi	620 013	624 281	638 251	653 306	664 959	670 104	682 288	693 618	704 367	711 093	712 384	718 557
Zahiralar chegirilgan holda muammoli kreditlar va mikroqarzlarining regulyativ kapitalga nisbati, foizda	11,4	11,9	12,6	14,1	13,2	12,1	12,1	12,0	12,1	12,1	11,6	9,3
Zaxiralar chegirilgan holdagi muammoli kreditlar va mikroqarzlar	12 516	13 190	14 040	15 845	14 956	13 957	14 139	14 215	14 471	14 643	14 373	11 557
Regulyativ kapital	109 891	110 455	111 397	112 532	113 724	115 612	116 910	117 994	119 605	121 265	123 800	124 793
I darajali asosiy kapitalning tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlarning umumiy summasiga nisbati, foizda	15,3	15,1	14,8	14,5	14,3	14,2	13,9	13,8	13,9	14,0	14,2	14,3
I darajali asosiy kapital	94 634	94 198	94 582	94 658	94 891	94 904	94 885	95 450	97 768	99 673	101 160	102 618
Tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlarning umumiy summasi	620 013	624 281	638 251	653 306	664 959	670 104	682 288	693 618	704 367	711 093	712 384	718 557
I darajali kapitalning jami aktivlar summasiga nisbati, foizda	14,5	14,5	14,2	14,1	13,8	13,8	13,4	13,1	13,3	13,2	13,5	13,3
I darajali kapital	94 679	94 253	94 637	94 713	94 946	95 074	95 055	95 620	97 989	99 673	101 160	102 618
Jami aktivlar	652 387	648 617	665 657	670 515	686 191	690 424	711 111	731 605	738 721	753 052	751 032	769 330
Muammoli kreditlarning jami kreditlar va mikroqarzlarga nisbati, foizda	4,2	4,3	4,4	4,7	4,2	4,0	4,1	4,1	4,1	4,2	3,9	
Muammoli kreditlar va mikroqarzlar	20 014	20 850	21 601	23 312	20 936	20 000	20 820	21 530	21 539	22 014	22 452	21 185
Jami kreditlar va mikroqarzlar	478 910	481 938	488 795	493 796	500 607	504 946	511 065	519 207	526 331	531 467	536 032	544 896

1-rasm. 2024-yilda bank tizimining moliyaviy barqarorlik koʻrsatkichlari (davr oxiriga)¹²

2024-yil 1-fevral holatiga tijorat banklarining muammoli kreditlari (NPL) toʻgʻrisida taqdim etilgan maʼlumotlarni tahlil qilamiz. Jami kreditlar miqdori 469 600 mlrd. soʻmni tashkil etadi, ulardan 20 014 mlrd. soʻmi muammoli kreditlar boʻlib, bu jami kreditlarning 4,3% ni tashkil etadi. Shuning uchun umumiy muammoli kreditlar darajasi nisbatan oʻrtacha holatda boʻlib, bu koʻrsatkich bank tizimining umumiy moliyaviy barqarorligini koʻrsatadi. Davlat ulushi mavjud tijorat banklarining kredit portfeli 329 591 mlrd. soʻmni tashkil etadi, ulardan 15 418 mlrd. soʻmi muammoli kreditlar boʻlib, bu 4,7% ni tashkil etadi. Bu koʻrsatkich davlat banklarining kredit portfelida muammoli kreditlar ulushi yuqori ekanligini koʻrsatadi. Boshqa banklar 140 009 mlrd. soʻm kredit portfeliga ega boʻlib, 4 596 mlrd. soʻmi muammoli kreditlar boʻlib, bu 3,3% ni tashkil etadi. Tijorat banklarining umumiy kredit portfelidagi muammoli kreditlar ulushi 4,3% ni tashkil etadi, bu bank tizimining barqarorligini saqlashda muhim koʻrsatkich boʼlishi mumkin. Davlat banklarida muammoli kreditlar ulushi 4,7% ni tashkil etib, xususiy banklarga qaraganda yuqori. Shuningdek, baʼzi davlat banklarida muammoli kreditlar koʻrsatkichi yuqori, masalan, Xalq banki (7,6%) va Biznesni rivojlantirish banki (11,0%).

¹² Markaziy Bankning Statistik byulleteni 2024-yil <https://cbu.uz>

Maxsus holatdagi banklar, masalan, Madad Invest bank va Oktobank, juda yuqori muammoli kreditlar ulushiga ega, bu banklar uchun xavfli holatni yaratadi. Bunday banklar tezkorlik bilan o‘z kredit portfellari va risklarni boshqarish tizimini qayta ko‘rib chiqishi kerak. Shu bilan birga, KDB Bank O‘zbekiston, Uzum bank, Yangi bank, Hayot bank kabi banklar muammoli kreditlar bo‘yicha yaxshi holatda, bu banklar o‘z portfellari va risklarni samarali boshqarayotganini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, tijorat banklarining muammoli kreditlar ulushi o‘rtacha darajada bo‘lib, ba’zi banklarda bu ko‘rsatkich yuqori bo‘lsa-da, tizimning umumiyligi holati barqarorligini saqlab qolmoqda. Banklar risklarni boshqarish va kredit portfellari sifatini yaxshilash uchun zarur choralarni ko‘rishlari kerak.

2-jadval

«Tijorat banklarining muammoli kreditlari (NPL) to‘g‘risida 2024-yil 1-fevral holatiga ma'lumot»¹³

Nº	Bank nomi	Kreditlar	Muammoli kreditlar (NPL)	Muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi
	Jami	469 600	20 014	4,3%
	Davlat ulushi mavjud banklar	329 591	15 418	4,7%
1	O‘zmilliybank	97 672	3 520	3,6%
2	O‘zsanoatqurilishbank	56 746	2 189	3,9%
3	Agrobank	54 350	2 045	3,8%
4	Asaka bank	38 678	1 840	4,8%
5	Xalq banki	24 314	1 848	7,6%
6	Biznesni rivojlantirish banki	21 529	2 358	11,0%
7	Mikrokreditbank	14 260	888	6,2%
8	Turon bank	11 815	300	2,5%
9	Aloqa bank	10 150	429	4,2%
10	Poytaxt bank	77	2	2,3%
	Boshqa banklar	140 009	4 596	3,3%
11	Ipoteka-bank	37 893	2 769	7,3%
12	Kapital bank	26 910	453	1,7%
13	Hamkorbank	16 009	139	0,9%
14	Ipak yo‘li bank	12 004	264	2,2%
15	Orient Finance bank	8 540	2	0,0%
16	Invest Finance bank	6 429	131	2,0%
17	Davr bank	5 080	44	0,9%

¹³ <https://cbu.uz>

18	Trastbank	5 068	110	2,2%
19	Tenge bank	3 989	128	3,2%
20	Tibisi bank	3 970	80	2,0%
21	Asia Alliance bank	3 938	59	1,5%
22	Anor bank	3 208	64	2,0%
23	KDB Bank O‘zbekiston	2 683	0,0	0,0%
24	Ziraat Bank Uzbekistan	1 558	54	3,5%
25	Universal bank	1 207	34	2,8%
26	Garant bank	892	70	7,9%
27	Madad Invest bank	289	81	28,0%
28	Oktobank	147	110	75,0%
29	Uzum bank	50	0,0	0,0%
30	Yangi bank	47	0,0	0,0%
31	Hayot bank	36	0,0	0,0%
32	Apeks bank	31	0,0	0,0%
33	Eron Soderot bankining ShB	20	4	18,9%
34	AVO bank	13	0,0	0,0%
35	Smart bank	0,2	0,0	0,0%

Sana	Kreditlar			Muammoli kreditlar (NPL)			Muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi, foizda			mldr. so‘n	
	Jami	shundan:		Jami	shundan:		Jami	shundan:			
		davlat ulushi mavjud banklar	boshqa banklar		davlat ulushi mavjud banklar	boshqa banklar		davlat ulushi mavjud banklar	boshqa banklar		
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10		
01.01.2023 y.	390 048,9	324 680,8	65 368,2	13 992,4	12 643,3	1 349,1	3,6	3,9	2,1		
01.02.2023 y.	391 109,2	324 113,9	66 995,2	14 912,4	13 543,6	1 368,9	3,8	4,2	2,0		
01.03.2023 y.	397 637,5	328 047,7	69 589,8	15 052,1	13 637,9	1 414,2	3,8	4,2	2,0		
01.04.2023 y.	408 167,2	334 767,0	73 400,1	14 341,7	12 919,8	1 421,9	3,5	3,9	1,9		
01.05.2023 y.	413 400,3	336 821,6	76 578,7	14 766,7	13 341,8	1 424,9	3,6	4,0	1,9		
01.06.2023 y.	420 469,5	340 335,0	80 134,5	14 639,0	13 211,9	1 427,1	3,5	3,9	1,8		
01.07.2023 y.	423 772,5	307 886,8	115 885,7	14 303,2	11 855,0	2 448,2	3,4	3,9	2,1		
01.08.2023 y.	430 227,2	310 873,2	119 354,0	15 743,1	12 191,8	3 551,3	3,7	3,9	3,0		
01.09.2023 y.	444 722,9	320 436,6	124 286,3	17 269,4	12 668,6	4 600,8	3,9	4,0	3,7		
01.10.2023 y.	451 610,3	324 034,7	127 575,6	16 828,3	12 589,3	4 239,1	3,7	3,9	3,3		
01.11.2023 y.	460 490,9	329 528,8	130 962,1	16 777,5	13 069,4	3 708,1	3,6	4,0	2,8		
01.12.2023 y.	465 493,4	331 070,3	134 423,1	17 631,4	13 750,0	3 881,4	3,8	4,2	2,9		
01.01.2024 y.	471 405,5	333 298,1	138 107,4	16 621,4	13 267,2	3 354,2	3,5	4,0	2,4		
01.02.2024 y.	469 600,4	329 591,1	140 009,4	20 013,9	15 418,2	4 595,7	4,3	4,7	3,3		
01.03.2024 y.	472 406,9	331 151,0	141 255,9	20 850,3	16 141,8	4 708,5	4,4	4,9	3,3		
01.04.2024 y.	478 200,6	335 366,4	142 834,2	21 600,8	16 944,5	4 656,2	4,5	5,1	3,3		
01.05.2024 y.	483 605,3	339 210,0	144 395,3	23 311,9	17 830,7	5 481,2	4,8	5,3	3,8		
01.06.2024 y.	490 259,5	343 469,4	146 790,1	20 935,9	16 428,3	4 507,7	4,3	4,8	3,1		
01.07.2024 y.	493 952,1	345 500,8	148 451,3	20 000,3	15 102,3	4 898,0	4,0	4,4	3,3		
01.08.2024 y.	500 643,9	348 292,7	152 351,2	20 820,5	15 249,7	5 570,7	4,2	4,4	3,7		
01.09.2024 y.	509 675,8	354 815,5	154 860,4	21 530,1	15 063,0	6 467,2	4,2	4,2	4,2		
01.10.2024 y.	515 640,8	358 577,6	157 063,1	21 539,4	14 604,9	6 934,4	4,2	4,1	4,4		
01.11.2024 y.	521 025,0	362 004,6	159 020,4	22 013,7	14 961,0	7 052,7	4,2	4,1	4,4		
01.12.2024 y.	525 886,5	363 938,6	161 947,9	22 446,6	14 981,9	7 464,7	4,3	4,1	4,6		
01.01.2025 y.	533 121,2	366 730,5	166 390,7	21 185,1	14 343,8	6 841,3	4,0	3,9	4,1		

2-rasm. Tijorat banklarining muammoli kreditlari (NPL)¹⁴

Muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi 01.01.2025 yil holatiga 4,0% tashkil etib, davlat ulushi mavjud banklarda 3,9% boshqa banklarda esa 4,1% ni tashkil etadi. Jami muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi 2023-yil shu sana holatiga nisbatan boshqa banklardagi ulushi oshgan. oshgan

Tijorat banklari aktivlarining sifati «substandart» deb tasniflangan holatda, ular qaytarilmagan asosiy qarz (qoldiq) summasining o‘n foizini tashkil etuvchi maxsus zaxira shakllantirishi kerak. Agar asosiy qarz va foizlar bo‘yicha muddati 90 kundan oshmagan qarzdorlik mavjud bo‘lsa, aktiv “qoniqarsiz»deb tasniflanadi.

Bundan tashqari, tijorat banki «qoniqarsiz»deb tasniflangan aktivlar uchun ularning qaytarilmagan asosiy qarz summasining yigirma besh foiziga teng bo‘lgan maxsus zaxira shakllantirishi zarur. Agar quyidagi omillardan hech bo‘lmaganda biri mavjud bo‘lsa, aktiv «shubhali» deb tasniflanadi:

“Qoniqarsiz” aktivlarning salbiy ko‘rsatkichlaridan biror biri yoki boshqa salbiy holatlar mavjud bo‘lsa (masalan, bozorda oson sotiladigan ta’minotning yo‘qligi, ta’milanmagan aktivlarning borligi yoki qarz oluvchining bankrot deb e’lon qilinishi);

Yaqin kelajakda aktivning qisman to‘lanishi ehtimoli mavjud bo‘lsa.

Agar asosiy qarz va foizlar bo‘yicha muddati 90 kundan ortiq, lekin 180 kundan oshmagan qarzdorlik mavjud bo‘lsa, aktiv «umidsiz» deb tasniflanadi va u uchun qaytarilmagan asosiy qarz (qoldiq) summasining ellik foiziga teng maxsus zaxira shakllantirilishi lozim.

Agar asosiy qarz va foizlar bo‘yicha muddati 180 kundan ortiq o‘tgan qarzdorlik mavjud bo‘lsa, aktiv «umidsiz» deb tasniflanadi. Bunday holda, tijorat banki qaytarilmagan asosiy qarz (qoldiq) summasining yuz foizini tashkil etadigan maxsus zaxira shakllantirishi kerak.

¹⁴ Markaziy Bankning Statistik byulleteni 2024-yil <https://cbu.uz>

Yangi kiritilgan o‘zgartirishlarga ko‘ra, Markaziy bank tijorat banklarining kredit portfellari bo‘yicha tahlil o‘tkazib, aktivlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarga qarshi qo‘srimcha zaxiralar shakllantirishni talab qilishi mumkin. Shu bilan birga, tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar bo‘yicha to‘lovlar kredit shartnomasining butun muddatiga taqsimlanib, bo‘lib-bo‘lib amalga oshirilishi belgilandi.

Bu qoida banklarda muammoli kreditlar paydo bo‘lishining oldini olishga qaratilgan ogohlantiruvchi mexanizm sifatida xizmat qiladi. Kiritilgan o‘zgartirishlar natijasida tijorat banklari aktivlarining sifatini tasniflash bo‘yicha yangi yondashuvlar joriy etildi. Eski qoidalarga ko‘ra, 30 kungacha to‘lov muddati o‘tgan kreditlar «standart», 90 kungacha to‘lov muddati o‘tgan kreditlar «substandart», 180 kundan ortiq kechiktirilgan kreditlar esa «umidsiz» deb tasniflangan. Yangi tartibga ko‘ra, shartnomaga muddatida to‘lanmagan va grafik bo‘yicha asosiy qarz va foizlar bo‘yicha oraliq to‘lovlar 180 kundan kechiktirilgan kreditlar «umidsiz» sifatida tasniflanadi.

Hozirgi kunda respublikada tijorat banklarining kredit qo‘ymalarida yetarli darajada diversifikatsiya mavjud bo‘lib, bank tizimida iqtisodiyot tarmoqlarining faoliyatiga bog‘liq xavf darajasi o‘rtacha darajada shakllangan.

III.XULOSA

Tijorat banklarining muammoli aktivlari, ya’ni substandart, shubhali yoki umidsiz kreditlar bankning umumiyligi moliyaviy holatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Muammoli aktivlar daromadlilikka ta’sir qilishi bir necha yo‘llar bilan amalga oshadi:

1. Kredit Yo‘qotishlari: Muammoli kreditlar yoki aktivlar odatda to‘lovni kechiktirgan yoki qaytarib berishga qodir bo‘lmagan mijozlarga tegishli bo‘ladi. Bu esa bank uchun yirik kredit yo‘qotishlarini keltirib chiqarishi mumkin. Kredit yo‘qotishlari bankning foydasi va daromadiga salbiy ta’sir qiladi.
2. Zaxiralar uchun Mablag‘ ajratilishi: Banklar muammoli kreditlarni to‘g‘ri baholash uchun rezervlar ajratishadi. Bu, o‘z navbatida, bankning sof daromadiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, chunki bu mablag‘lar faqat muammoli aktivlar uchun ehtiyyot chorasi sifatida ajratiladi va daromad sifatida hisoblanmaydi.
3. Kapital Etishmasligi: Muammoli aktivlar bankning kapitaliga ta’sir qiladi, chunki ular bankning umumiyligi aktivlarining qismida bo‘lib, xavf darajasini oshiradi. Bank kapitalining etishmasligi esa moliyaviy barqarorlikka putur yetkazishi va kredit berish faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.
4. Moliyaviy Barqarorlikning Pasayishi: Muammoli aktivlar ko‘paygan sari, bankning moliyaviy barqarorligi pasayadi, chunki ular bankning likvidligi va kapitalini kamaytiradi. Bu esa bankning yangi kreditlar berish imkoniyatlarini cheklashi mumkin, bu esa daromadning kamayishiga olib keladi.
5. Qarzni to‘lashni keltirib chiqaradigan o‘zgarishlar: Agar bankda muammoli kreditlar ortib ketsa, ular mijozlarning qarzlarini to‘lashda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Bu holat bankning qisqa muddatli likvidlik muammolarini keltirib chiqarishi mumkin, chunki ular o‘z majburiyatlarini vaqtida bajara olishmaydi.

6. Reputatsiya Riski: Muammoli aktivlar ko‘p bo‘lsa, bu bankning bozordagi obro‘siga ta’sir qilishi mumkin. Investorlarda va mijozlarda bankka bo‘lgan ishonch pasayishi daromadlilikiga ta’sir ko‘rsatadi, chunki ular bankning samaradorligi va xavfsizligiga shubha qilishadi.

Natijada, tijorat banklaridagi muammoli aktivlar daromadlilikka salbiy ta’sir o‘tkazadi, chunki ular moliyaviy barqarorlikni pasaytiradi, kredit yo‘qotishlarini oshiradi va yangi kreditlar berish imkoniyatlarini cheklaydi. Bizning fikrimizcha, mamlakatimiz tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlarning muammoli kreditlarga aylanmasligini oldini olish uchun quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiqdir:

- Banklarga kredit arizalariga chuqur va batafsil yondashish, ya’ni dastlabki monitoringni to‘g‘ri va mukammal amalga oshirish. Bu jarayonda, mijozning xarakteri, uning moliyaviy holati, biznes hamkorlari orasidagi mavqeい va sohadagi tajribasiga alohida e’tibor qaratish zarur.
 - Kredit arizasini ko‘rib chiqish jarayonida mijoz tomonidan taqdim etilgan hujjatlar to‘plamining to‘liqligi va to‘g‘riligini tekshirish. Kredit bo‘limi xodimi mijozning moliyaviy holatini chuqur tahlil qilib, xolisona baholashni amalga oshirishi kerak.
 - Kredit ajratilganidan keyin, mijozning biznes-rejasi bo‘yicha amalga oshirayotgan faoliyatlarini, hisob raqamidagi mablag‘larning aylanmasini doimiy ravishda nazorat qilish, muddatidan o‘tgan debitorlik-kreditorlik qarzdorliklariga yo‘l qo‘ymaslik uchun zarur choralarini ko‘rish.
 - Kredit ta’minoti sifatida taqdim etilgan mol-mulkni saqlash va ekspluatatsiya sharoitlarini doimiy ravishda nazorat qilish.
 - Agar kredit ta’minoti sifatida uchinchi shaxsning kafilligi taqdim etilgan bo‘lsa, kafilning moliyaviy hisobotlarini har chorakda tahlil qilib, uning to‘lov qobiliyatini o‘rganib borish.
 - Korxonaning mol-mulkini baholashda bankning mulkni baholash bo‘yicha mutaxassislariga ko‘proq imkoniyatlar yaratish.

Bundan tashqari, tijorat banklarida muammoli kreditlarni samarali boshqarish uchun quyidagi omillarni hisobga olish zarur:

- Bank aktivlari sifatini doimiy ravishda monitoring qilib borish, aktivlarga bog‘liq muammolarni dastlabki bosqichda aniqlash va bartaraf etish mexanizmini mustahkamlash.
- Banklarda aktivlarni keng diversifikatsiya qilish, kredit portfelini sog‘lomlashtirish orqali tavakkalchiliklarni samarali boshqarish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va iqtisodiy vaziyatga mos ravishda ularga zarur o‘zgartirishlar kiritish.
- Bank tizimiga oid qarorlar va kredit munosabatlarini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar ijrosini ta’minlash, kreditlash jarayonida yuzaga kelishi mumkin

bo‘lgan xatarlarni baholash, o‘rganish va ularni tahlil qilish, shuningdek biznes-reja ko‘rsatkichlarining bajarilishini nazorat qilish.

- Muammoli kreditlarni boshqarishning yangi usullarini ishlab chiqish.
- Bank kredit siyosati va kreditlash tamoyillari shartlariga rioya etilishini muntazam nazorat qilish.

IV.FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2020-yil 12-may, PF-5992-son. URL: <https://lex.uz/uz/docs>
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori «Banklarning kreditlari bo‘yicha qarzdorlik o‘z vaqtida qaytarilmagan taqdirda undiruvni qarzdorning likvidli mol-mulkiga qaratish tartibini tasdiqlash to‘g‘risida». 2002-yil 4-dekabr, No422.
3. Каримов И. А. 2021-yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirdorlikka keng yo‘l ochib berish – ustuvor vazifamizdir // Xalq so‘zi. 2021-yil 17-yanvar. №13.
4. Абдуллаева Ш. З. Bank risklari va kreditlash. – Тошкент: Молия, 2012. – 124 б.
5. Пещанская И. В. Организация деятельности коммерческого банка: Учебное пособие. – М.: ИНФРА-М, 2001. – 336 с.
6. Роуз П. Банковский менеджмент: Пер. с англ. – М.: Дело, 2019. – 192 с.
7. Абдуллаева Ш., Сафарова З. Tijorat banklari moliyaviy resurslarini boshqarish. – Тошкент: Молия, 2020.
8. Управление деятельностью коммерческого банка (банковский менеджмент) / Под ред. д-ра экон. наук, проф. О. И. Лаврушина. – М.: Юристъ, 2002. – 456 с.
9. Азларова А. А. Tijorat banklarida kredit portfelini samarali boshqarish masalalari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. 2018. №6. – 3 б.
10. Saeid Khajeh Dangolania. The impact of information technology in banking system (A case study in bank Keshavarzi Iran) // Procedia - Social and Behavioral Sciences. 2011. Vol. 30. – P. 13–16.
11. Goyal J., Singh M., Singh R., Aggarwal A. Efficiency and technology gaps in Indian banking sector: Application of meta-frontier directional distance function DEA approach // The Journal of Finance and Data Science. 2019. Vol. 5. – P. 156–172.

TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI PLATFORMALARNING STRATEGIK ROLI

Tojiboyev Ibroximjon Tojaliyevich

TATU Farg‘ona filiali dotsenti, FarDU dotsenti

ibroxim@gmail.com

+998911238684

Lutfullayeva Diyora Abduraxmon qizi

TATU Farg‘ona filiali magistranti

diyoralutfullayeva00@gmail.com

+998912063296

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli platformalarning ta’lim samaradorligini oshirishdagi strategik roli tahlil qilinadi. Raqamli platformalar ta’limdagi innovatsion imkoniyatlar, uning individuallashtirilishi, tajriba va yo‘nalishlarini yaxshilash, hamda yangi o‘qitish va baholash usullari orqali ta’lim tizimining sifatini oshirish imkoniyatlari orasidan o‘rin oladi. Maqola raqamli platformalarning ta’limga ta’sirini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qiladi, ularning asosiy funksiyalari va zamonaviy trendlarini ko‘rsatadi. Shuningdek, ta’limda raqamli texnologiyalarning foydalanish imkoniyatlari va ularning jahon va mahalliy miqyosda qanday samaradorlikni ta’minlashdagi roli tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Raqamli platformalar, ta’lim samaradorligi, innovatsion texnologiyalar, onlayn ta’lim, pedagogika, ta’lim texnologiyalari.

I. Kirish

Zamonaviy dunyoda raqamli texnologiyalar ta’lim sohasini tubdan o‘zgartirib, o‘qitish va o‘rganish jarayonlariga yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Ta’lim samaradorligini oshirish bugungi kunda har bir mamlakatning asosiy maqsadlaridan biri bo‘lib, bunda raqamli platformalarning roli muhim ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli platformalar o‘quvchilarga individual yondashuv, o‘quv materiallarini moslashtirish, interaktiv ta’lim jarayonlarini tashkil qilish va bilimlarni baholashda yangi imkoniyatlarni taqdim etmoqda.

Raqamli platformalarning strategik roli, avvalo, ularning ta’lim jarayonidagi integratsiyasi va ta’lim-tarbiya jarayonlarini optimallashtirish imkoniyatlarida namoyon bo‘ladi. Bu platformalar nafaqat o‘quv materiallarini yetkazib berish vositasi, balki o‘qitish jarayonini boshqarish va talabalarning o‘zlashtirish darajasini monitoring qilishda ham strategik vosita hisoblanadi. Ushbu texnologiyalar ta’lim muassasalariga vaqt va resurslarni tejash imkonini berib, o‘qituvchilar va talabalarga ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Mazkur maqolada raqamli platformalarning ta’lim samaradorligini oshirishdagi strategik roli ko‘rib chiqiladi. Avvalo, raqamli platformalarning asosiy xususiyatlari va imkoniyatlari tahlil qilinadi, so‘ngira ular orqali ta’limda erishilayotgan natijalar va ularning samaradorlikka ta’siri muhokama qilinadi. Shuningdek, raqamli platformalarni muvaffaqiyatli joriy etish va ulardan samarali foydalanishning asosiy omillari hamda ulardan kelgusidagi foydalanish istiqbollari tahlil qilinadi. Bu yondashuv raqamli platformalarning ta’lim jarayonidagi o‘rnini yanada aniqroq

tushunishga yordam beradi va ularning ta'limgan samaradorligini oshirishdagi strategik ahamiyatini ko'rsatib beradi.

